

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA-MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Yapon jamiyatida amalga oshirilgan yozuv islohotlari tarixidan
(okurigana misolida)**

Bajardi: “Yapon filologiyasi” ta’lim
yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Shukurov Jasur Zafardinovich_____

Ilmiy rahbar: “Yapon filologiyasi”
kafedrası o`qituvchisi
Ishimura Ikumi_____

Konsultant: Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent
Nosirova Saodat A _____

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari”
fakulteti dekani f.f.n., Nosirova S. A.

“ _____ ” _____ 2012-yil

“Yapon filologiyasi” kafedrasi mudiri
f.f.n., dots. Kim N.D.

“ _____ ” _____ 2012-yil

MUNDARIJA

I. KIRISH.....	3
II. ASOSIY QISM	
1-bob. TILDA YOZUV ISLOHOTI VA YAPON YOZUVINI ISLOH QILISHGA QARATILGAN HARA-KATLAR.	
1.1. Tildagi islohotga ta'rif.....	17
1.2. Tilda yozuvning ahamiyati.....	18
1.2.1. Yozuvlar ustida amalga oshirilgan islohotlar tarixidan.....	19
1.3. Yapon yozuvini shakllantirishning ayrim masalalari.....	25
1.3.1. Xiragana yozuvi islohotlari.....	30
1.3.2. Katakana yozuvi islohotlari.....	34
2-bob. OKURIGANANING YAPON YOZUVIDA TUTGAN AHAMIYATI	
2.1. Okurigananing kelib chiqishi.....	38
2.1.1. Ingliz tilidagi analoglar (o'xshashliklar).....	44
2.2. Okurigananing yapon tilida bajaradigan vazifasi.....	45
2.3. Okurigana yuzasidan o'tkazilgan anketa tadqiqoti va uning natijalari.....	51
III. XULOSA.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	61
Ilovalar.....	64

KIRISH

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro`-e`tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o`sib, ulg`ayib, qanday inson bo`lib hayotga kirib borishiga bog`liqdir. Biz bunday o`tkir haqiqatni hech qachon unutmashligimiz kerak¹.

Islom KARIMOV

Mavzuning dolzarbligi. Yozuv til bilan o`zaro chambarchas bog`liq. Biror tilni shu tilning yozuvini o`rganmasdan, yoki aksincha, biror yozuvni shu yozuv tegishli bo`lgan tilni bilmasdan o`rganish mumkin emas. Ammo yozuv og`zaki til (nutq) ni aynan aks ettira olmaydi. Zotan, yozuv shunday xususiyatga ega bo`lganda, imlo qoidalariga, talaffuz mezonlariga mutlaqo ehtiyoj qolmagan bo`lardi.

Yozuv og`zaki tilga nisbatan, ikkilamchi, qo`shimcha aloqa vositasi bo`lsa-da, unga qaraganda ko`p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi – kishilar o`rtasidagi aloqani ta`minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnoseologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo`lga kiritgan tajriba-bilmlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so`z san`ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib boradi².

¹ Karimov I. A. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma`naviyat” 2008.

² O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 3-jild, 2002, «O`zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 476-477-betlar.

Hozirgi kunda dunyoda yozuvning eng ko'p tarqalgan 4 turi mavjuddir. Bular: arab, xitoy, lotin va kirill yozuvlari hisoblanadi. Ular nafaqat shaklan, balki yozuv yo'nalishiga qarab ham o'ziga xosdir. Chunki arab yozuvi – o'ngdan chapga, lotin va kirill yozuvlari – chapdan o'ngga, xitoy yozuvi esa yuqoridan pastga qarab yoziladi va o'qiladi. Bu asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Shuning uchun ham mazkur uch xil yo'nalishda yoziladigan yozuvlarni buyuk “uch og'a-inilar” deb atashadi. Shuningdek sanskrit yozuv turi ham keng qo'llab kelinadigan yozuvlar sirasiga kiradi. Albatta, dunyo xalqlari orasida o'zining tarixan qaror topgan va uzoq o'tmishga ega bo'lgan yozuviga ega xalqlar ko'pligi barchamizga ma'lum. Misol uchun, gruzin yoki arman xalqlarining yozuvi, ivrit yozuvi (Isroil), yoki matematika va fizika fanlarigacha kirib borgan yunon yozuvi va ho kazo. Mazkur yozuvlar asrlar mobaynida shakl-shamoyilini yo'qotmagan holda, avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Ammo bu yozuvlar ma'lum bir hududni qamrab olgan bo'lib, faqat shu xalq vakillarigagina tegishlidir. Yuqorida qayd etib o'tilgan yozuvlar esa, faqat shu millat vakillariga tegishli bo'lib qolmasdan, balki boshqa xalqlarning ham yozuvi kelib chiqishida katta rol o'ynagan. Masalan, arab yozuvi 22 ta arab davlatlarining yozuvi (bu mamlakatlar fuqarolari o'zlarini o'sha mamlakatlik deb hisoblaydi, ammo ular umumlashtirilib arablar deb ataladi) bo'libgina qolmasdan, forslar, pushtunlar, darilar, pokistonliklarning ham yozuvidir. Xitoy iyerogliflari Xitoyda paydo bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi yapon va koreys yozuvlarining kelib chiqishiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Iyerogliflar shuningdek, Taivanda ham qo'llaniladi. Albatta, dunyo xalqlari yozuvining 30 % ini o'zida jamlashtiruvchi yozuv turi – bu lotin yozuvidir. BMT rasmiy tillari – ingliz, ispan va fransuz tillarining yozuv shakli ham lotin yozuviga asoslanadi. Bundan tashqari nemis, italyan, portugal, golland, turk, indonez, vyetnam, ozarbayjon kabi tillar ham hozirda lotin yozuvi qo'llaniladigan tillardir. O'zbek tilida ham lotin yozuvi kirill yozuvi bilan bir qatorda qo'llanilib keladi. Kirill alifbosi asli kelib chiqishi yunon alifbosiga borib taqalsa-da, yunon yozuviga qaraganda keng tarqalgan yozuvdir. Bu yozuv ukrain, rus, belorus, bolgar,

makedon, qozoq, qirg'iz, tojik, shuningdek, o'zbek tillari uchun xos yozuv hisoblanadi.

Har bir til o'ziga ayrim jihatlari bilan o'xshash boshqa til bilan birgalikda yagona til oilasiga birlashadi. Ammo tillarni oilalarga bo'lib chiqishda yozuv turiga emas, balki tillarning fonetik qatlam, leksik tizim va grammatik qurilishi kabi umumiy o'xshash jihatlari inobatga olinadi. Misol uchun, fors tili arab yozuviga asoslangan, tojik tili kirill yozuviga asoslangan, nemis tili lotin yozuviga asoslangan bo'lishiga qaramay, ularning hammasi Hind-Yevropa tillari oilasi tarkibiga kiradi. Shunga o'xshash, o'zbek tili ham lotin, ham kirill yozuviga asoslangan, yapon tili esa Xitoy iyerogliflari va shu iyerogliflar negizida shakllangan kana harflariga asoslangan bo'lsa ham, ular Oltoy tillari oilasi tarkibidan joy olgan.

Yapon yozuvi iyerogliflardan tashqari kana alifbolari ham qo'llaniladigan til bo'lganligi uchun, bu til yozuvi bir qancha o'ziga xosliklarga ega bo'lishi bilan birga bir qancha murakkabliklarga ham egadir. Aynan kanalarning mavjudligi yapon tilini xitoy tilidan farq qilishi uchun eng asosiy omil vazifasini bajaradi. Yapon so'zlarining ba'zilar faqat iyeroglifning o'zidan iborat bo'lsa, ba'zilar ham iyeroglifdan, ham kanadan tashkil topgan bo'ladi. Iyeroglifning mavjudligi so'zning umumiy ma'nosini saqlab tursa-da, qo'shimcha ma'nolarni farqlashda kananing o'рни benihoya katta. Bu kanalarni bilish juda muhim bo'lib, biz ularni okurigana deb ataymiz.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, yangi o'qitila boshlangan tillar qatori yapon tilini o'rganuvchilar soni ham sekin-asta ko'paya boshladi. Dastlab Toshkent, keyinchalik esa Samarqand, Farg'ona, Buxoro va boshqa shaharlardagi oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturiga yapon tilini o'rganish ham kiritildi. Nafaqat oliy o'quv yurtlari, balki ular qoshidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ham yapon tili muntazam o'rgatilib kelinmoqda. Ular jumlasiga Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti qoshidagi Olmazor va Yunusobod akademik litseylari, Samarqand Sartepo turizm kolleji, Farg'onadagi Noriko gakkyu kabilarni keltirib o'tish mumkin. Bu o'quv muassasalarida yapon tili har

tomonlama chuqur o'rgatiladi – yapon tili grammatikasi, eshitish mashqlari, og'zaki nutq va albatta yozuv (ular yapon tilida xilma-xil) o'quvchilarga mahorat va oson yo'l orqali tushuntirib boriladi. Endilikda yapon tilini o'qitish o'zbek maktablarida ham joriy qilinishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun barcha shart-sharoitlar mavjuddir. Respublikamizning moddiy boyliklari, tabiatining noyob imkoniyatlari hamda eng asosiysi, xalqimizning mehnatkashligi va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan salohiyati va yana bitta muhim faktor – O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rahbarligida olib borilayotgan siyosatning jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilganligi buning kafolatidir. Bu kabi tarixiy omillar mustaqillikni qo'lga kiritgan boshqa yosh mustaqil davlatlarga nisbatan O'zbekistonning jahon iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jarayonlariga tezroq kirib borishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi, uning hukumati, Yo'l boshchisi Islom Karimov rahbarligida olib borilayotgan tashqi siyosat, har qanday zo'ravonliklar, tazyiqlar va g'oyaviy xurujlarni bartaraf etish omillari, xalqaro munosabatlarda har qanday muammoni aql-idrok va diplomatik yo'l bilan hal etish siyosati jahondagi barcha rivojlangan davlatlarning biz bilan har tomonlama hamkorlik qilishlariga yo'l ochib bermoqda.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyoning barcha mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirib barmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida O'zbekiston barcha taraqqiyparvar davlatlar bilan mafkurasidan qat'i nazar, o'zaro teng manfaatli hamkorlik o'rnatishga tayyor ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Respublikamiz dunyoning taraqqiy etgan davlatlari bilan tenglar ichra teng bo'lgan ikki tomonlama foydali siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston dunyoning eng taraqqiy etgan Yevropa davlatlaridan tashqari, Osiyoning, jumladan, Sharq va Tinch okeani havzasi mamlakatlari – Xitoy, Janubiy Koreya, Indoneziya,

Malayziya va nihoyat Uzoq Sharqda qudratli bo'lgan Yaponiya davlati bilan ham diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishga erishdi. Yurtboshimiz Islom Karimov O'zbekiston-Yaponiya munosabatlariga alohida e'tibor bilan qarab kelmoqda. Chunki Yaponiya hukumati qisqa vaqt ichida o'zining oqilona olib borgan ichki va tashqi siyosati tufayli dunyoning eng boy, rivojlangan, nufuzli davlatiga aylandi.

Yaponiya O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo'lib 1991-yil 28-dekabrdayoq tan olgan edi. Ko'p o'tmay, 1992-yilning boshidan ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Aynan shu yili Yaponiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1996-yilda esa O'zbekiston Respublikasining Tokiodagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Bu bejiz emas. Bizlar qadimiy Buyuk ipak yo'li orqali bog'langan xalqlarmiz. Jumladan, kattaga hurmat, kichikka izzat, oilaga sadoqat, saranjom-sarishtalik, xullas, barcha sharqona urf-odatlarimiz bir-biriga yaqin. Shuning uchun ham Yaponiya xalqi O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lishidan manfaatdon ekanligiga shubhamiz yo'q. II chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida aytilganidek, O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarini mustahkamlash ekanligi ham bejiz emas edi. Shu ma'noda Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlari mintaqamizda xavfsizlik va barqaror tinchlikka erishishda, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini hal qilishda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar kririb kelishida, qo'shma korxonalar tuzishda faol ishtirok etayotgani muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1994-yilning mayida Yaponiyaga qilgan birinchi tashrifi o'zaro siyosiy muloqotni faollashtirdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorilikni yangi boshqichga ko'tarishda Prezident Islom Karimovning Yaponiya hukumati taklifiga binoan 2002-yilning 28-31-may kunlari Yaponiyaga qilgan ikkinchi rasmiy tashrifi muhim rol o'ynadi. Tashrif chog'ida har ikki mamlakat o'rtasida uzoq muddatga mo'ljallangan strategik hamkorlik haqidagi Bitimga imzo chekildi. Hammasi bo'lib 14 hujjat imzolandi.

Olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bu voqea tufayli mamlakatimiz rasman Sharqning eng qudratli davlati bilan strategik ikki tomonlama foydali munosabatlar o'rnatishga erishdi³.

Gap shundaki, Yaponiya yuqori darajada rivojlangan industrial mamlakat bo'lib, uning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari 1950-yillardan boshlab, boshqa rivojlangan davlatlar o'rtasida yuqori o'rinni egallagan bilan keskin ajralib bordi. Hozirgi kunda Yaponiya fan-texnika taraqqiyoti, jahon siyosatida tutgan o'rni, dunyo rivojlanishidagi mavqei, ishlab chiqarish imkoniyatlari va mehnat resurslari jihatidan allaqachon yuksak darajaga yetgan qudratli davlat sifatida jahonga tanilgan.

Yaponiyaning juda qisqa vaqt ichida jahonning eng ilg'or mamlakatlari qatoridan o'rin olishiga sabab bo'lgan omillardan biri mamlakatda ta'lim sohasida o'tkazilgan islohotning to'g'ri olib borilganida, deb o'ylaymiz.

Yaponiyadagi ta'lim tizimi 1947-yilda qabul qilingan "Talim to'g'risidagi asosiy qonun" va "Maktab ta'limi to'g'risidagi qonun" negizida amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblarga qaraganda, majburiy ta'limni o'tab chiqqan o'quvchilarning 94 % i kirish imtihonlaridan o'ta olish darajasida bilim olishga erishadilar.

Yaponiyaga tashrif chog'ida Prezidentimiz Islom Karimov Yaponiyaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lgan Vaseda universitetida bo'ib, u yerdagi uchrashuv chog'ida shu universitetning rektori janob Okushima Takayasu Yurtboshimizning davlat boshqarish, jahon hamjamiyati qatori Yaponiya bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasidagi ulkan xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birgalikda, izchillik bilan amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy dasturining samaralari nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda ham e'tiborga loyiq ekanligini qayd etdi.

Shundan so'ng, Vaseda universiteti Ilmiy kengashining qaroriga binoan Islom Karimovga mazkur oliy o'quv yurtining faxriy doktori unvoni berildi.

³ Sherzod Qudratxo'jayev, Abdug'affor Qirg'izboyev, "O'zbekiston-Yaponiya: o'zbek diplomatiyasining yangi bosqichi", Toshkent, "O'AJBNT" Markazi, 2002, 23-bet.

Keyingi paytlarda O'zbekistonda yapon tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor tobora keng quloch yoyib bormoqda. Umuman, O'zbekiston va Yaponiya mamlakatlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari tobora chuqur ildiz otib bormoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yaponiya – O'zbekistonning Uzoq Sharq mintaqasidagi yaqin strategik sheriklaridan biriga aylandi. Bu – bejizga emas, albatta. Prezidentimiz o'zlarining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarlarida ta'kidlaganlaridek, “Masalan, Yaponiyani olaylik. Bu mamlakatning Ikkinchi jahon urushidan keyin qanday og'ir ahvolga tushib qolganini hammamiz yaxshi bilamiz. Xo'sh, ular nimaning evaziga qisqa davr ichida bu qadar rivojlanishga erisha oldi? Axir, bu o'lkada mo'l-ko'l tabiiy xomashyo manbalari, mineral resurslar deyarli yo'q-ku! Albatta, bu borada o'sha paytda dunyoda mavjud bo'lgan siyosiy omillar, xalqaro vaziyatning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Lekin yapon xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o'ziga xos milliy ma'naviyati hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shuning uchun “yapon mo'jizasi” haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda “yapon xarakteri” degan iborani tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o'rinda avvalo mazkur xalqlarga mansub ma'naviy fazilatlarni nazarda tutadi. Ya'ni, bu xalqning ichki dunyosi va irodasi ma'naviyat negizida yanada toblangan, kamolga yetgan”⁴. Aynan shu va shunga o'xshash jihatlar ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona munosabatlarning yanada rivojlanib borishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Sobiq ittifoq davrida mamlakatimizda chet tillarini o'rganish hozirgiga nisbatan ancha cheklangan edi. O'sha paytlarda asosan, G'arb tillarini o'rganishga bo'lgan e'tibor ancha katta bo'lib, Sharq tillari orasidan faqat siyosiy jihatdan ahamiyatga molik bo'lgan arab, xitoy, fors va eron-afg'on tillarigina o'rganilardi. Bu ham qaysidir ma'noda markaziy hokimiyat siyosatining ko'p tarmoqlarga bo'lgani kabi, ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohasiga ham ko'rsatgan ta'siri oqibati edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Sharq tillaridan tashqari boshqa tillar ham borki,

⁴ Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma'naviyat” – 2008, 26-27-betlar.

ularni o'rganish faqatgina Ittifoqning oz sonli oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilardi. Yurtimizda esa bu imkoniyat chegaralangandi.

Shunday bo'lsa-da, chegara bilmas ilm-ma'rifat tufayli Yaponiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi ilmiy va madaniy sohalarda ham o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yildi. Yapon va o'zbek olimlari ayniqsa, tarix, tilshunoslik va arxeologiya fanlari bo'yicha samarali hamkorlikni amalga oshirdilar. Itaro Kumatsuning yaponlar uchun "O'zbek tili" qo'llanmasi (1978), "O'zbekcha so'zlashuv" (1983), "O'zbekcha-yaponcha lug'at" (1980, 1985) kitoblari ko'p ming nusxada nashr etildi. Shuningdek, adabiyot sohasida ham bir qancha yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, barcha sohalar kabi ta'lim sohasida ham katta islohotlar olib borildi. Shu paytgacha sobiq Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti) ga qarashli Sharqshunoslik fakulteti 1991-yil 15-iyun kungi Prezident Islom Karimov qarori bilan mustaqil Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutiga aylantirildi. Aynan shu yildan e'tiboran, institut Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari fakultetida ilgari o'rganilishi orzu qilib kelingan bir qancha tillar ta'lim dasturidan joy ola boshladi. Xitoy tili bilan bir qatorda, endilikda yapon, koreys, malay, indonez, vyetnam kabi tillar ham institutda keng o'rganiladigan bo'ldi. Shuningdek, turk, uyg'ur, hind, urdu tillari ham bu tillarni o'rganish istagidagilar uchun yanada chuqur o'rgatiladigan darajaga yetdi.

O'zbekistonda Sharq tillarini o'rganish va o'rgatish o'zining uzoq tarixiy an'analariga ega. Bu an'analar Toshkent davlat sharqshunoslik institutida o'ziga xos tamoyillar asosida davom ettirib kelinmoqda. Xususan, Sharq tillarini o'rganishni takomillashtirish, Sharq tillari chuqur o'rgatiladigan maktablar, litseylar, oliy ta'lim muassasalari uchun nazariy va amaliy jihatdan chuqur bilimga ega mutaxassis kadrlar yetishtirib berish, Sharq tillari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratish kabi bir qancha masalalar yechimi yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Institutda 2000-yildan boshlab Sharq tillari bo'yicha mashg'ulotlar saviyasini oshirish uchun o'qituvchilarga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, ta'limdagi innovatsiyalarni dars jarayoniga muntazam tatbiq etish

maqsadida moderatorlar guruhi faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, xorijiy Sharq mamlakatlaridan o'qituvchilarni taklif etish ham an'anaga aylangan bo'lib, bugungi kunda institutda Yaponiya, Janubiy Koreya, Misr Arab Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa Sharq mamlakatlaridan kelgan qator mutaxassislar dars berib kelishmoqda⁵.

Kadrlar tayyorlash Yaponiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yo'nalishlaridan biridir. Yaponiya – O'zbekiston uchun bakalavr grantini ajratgan yagona mamlakatdir. Ushbu grant dasturi 2005-yildan buyon muntazam o'tkazib kelinadi. Hozirgacha respublikaning turli vazirlik va idoralaridan 800 ga yaqin kishi Yaponiyada tajriba orttirib qaytdi, 98 nafar yosh mutaxassis Yaponiyaning yetakchi universitetlarida magistratura kursini bitirdi. 2000-yildan boshlab Yaponiya xalqaro hamkorlik markazi stipendiyasi asosida yiliga o'zbekistonlik 20 magistrant Yaponiyaga ikki yillik o'qishga bormoqda. Prezident Islom Karimov 2002-yili Yaponiyaga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida “kunchiqar yurt”da ta'lim olayotgan o'zbekistonlik 70 ga yaqin talabalar bilan uchrashub, ular bilan mamlakatimiz uchun zamonaviy kadrlarning ahamiyati, bu borada mamlakatimizga Yaponiyaning ko'rsatayotgan yordami xususida suhbat o'tkazdi. Eng quvonarlisi shuki, O'zbekiston va Yaponiya hukumatlari o'rtasida 348 million iyena miqdorida yangi grant ajratish to'g'risida bitim imzolandi. Bu bitimga muvofiq yana 20 nafar o'zbekistonlik yigit-qizlarning Yaponiyada tahsil olishi uchun imkoniyatlar yaratildi. Hozirgi kunda Yaponiya hukumati O'zbekiston talabalari uchun har yili umumiy hisobda 300 ta turli xil dasturdagi grantlarni ajratgan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining elektronika, seysmologiya, immunologiya, biokimyo, umumiy va noorganik kimyo, fiziologiya va biofizika, sharqshunoslik, arxeologiya institutlari, “Botanika” ilmiy ishlab chiqarish markazi bilan Yaponiyaning tegishli universitet, institut va boshqa tashkilotlari o'rtasida muntazam hamkorlik yo'lga qo'yildi.

⁵ “Sharq tillari va adabiyoti fanlarini o'qitish metodikasining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti, 2009, 3-bet.

2001-yil Toshkentda O'zbekiston-Yaponiya inson resurslarini rivojlantirish markazi tashkil etildi. Hozirgacha ushbu markazning biznes, yapon tili va kompyuter kurslarini 1500 dan ortiq kishi tugatdi. Umuman markaz o'tkazgan turli madaniy-ma'rifiy darsturlarda 100 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi. Keyingi paytlarda ushbu markazning Samarqand, Farg'ona va Buxoro shaxobchalari ham faol harakat olib bormoqda.

Ushbu BMI ning dolzarbligi shundaki, mazkur mavzu yuzasidan o'zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Mazkur ish bizga hali yapon yozuvining islohotlari haqida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan ma'lumotlardan xabardor qilgan holda, yapon yozuvidagi o'ziga xos yozuv turi – okurigana haqidagi islohotlarni yoritib beradi. Yapon yozuvi turli xil bo'lib, tilni o'rganuvchilar uchun bu yetarlicha muammo tug'diradi. Tadqiqot davomida yapon yozuvi islohoti, undagi okuriganaga asosiy e'tibor qaratilib, tilda olib boriladigan islohotlar qatoriga kiruvchi okurigana islohoti qay tarzda rivojlanib borganligi yoritiladi. Shuningdek, okurigana yapon tilini o'rganuvchi o'zbek talabalari uchun iyerogliflarning qiyinlik darajasiga qarab, shu bilan birga so'z turkumlariga qarab qay darajada murakkabligi ko'rib o'tiladi. BMIda o'tkaziladigan tadqiqot natijasi esa asosiy qismda taqdim etiladi.

Mazkur BMIda dastavval tilda olib boriladigan islohotlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilib, keyin esa bevosita yapon tiliga bog'liq bo'lgan islohotlar, ularning ichidan ayniqsa yozuv islohotlariga alohida to'xtalib o'tiladi. Yapon tilida yozuvning xilma-xilligi, ularning har biri yapon jamiyatida qaysi jabhalarda qo'llanilishi kabilar yoritib boriladi. okurigananing qay tarzda o'zgarib borishi, bu o'zgarishlarning tarixi tadqiq qilinadi. Shuningdek, yapon tilini o'rganuvchi o'zbek talabalari okurigananing qaysi jabhalarida ko'p xatolarga yo'liqishlari, nima sababdan xatolarga yo'l qo'yishlari oydinlashtirilgach, so'z turkumlariga qarab okurigananing qiyinchilik darajasi tahlil qilinadi. Bu xatolar o'zbek talabalari orasida o'tkazilgan anketa tadqiqotlari orqali tekshiriladi.

O'zbek talabalarining okuriganaga bog'liq savollarga bergan to'g'ri va noto'g'ri javoblari, shuningdek umuman belgilanmay shu holicha qoldirilgan

javoblariga asoslanib, bundan buyon okuriganani o`rganishda nimalarga e`tiborni qaratish lozimligi haqida batafsil to`xtalib o`tiladi. O`tkaziladigan anketa tadqiqoti natijasidan kelib chiqib aytadigan bo`lsak, ushbu tadqiqot, kelajakda okurigana yuzasidan amalga oshiriladigan turli malakaviy ishlarni rivojlantirib, pirovard maqsad bo`lmish yapon tilini o`rganuvchi o`zbek talabalari uchun mo`ljallangan okurigana qo`llanmasini tuzishda asos bo`lib xizmat qilajak.

BMI ning maqsad va vazifalari. Ushbu BMI dan ko`zlangan asosiy maqsad – yapon tilini o`rganuvchilar uchun avvalo tildagi islohotlarning ahamiyati haqida ma`lumot berish, yapon jamiyatida davlat tilini isloh qilish bo`yicha amalga oshirilgan asosiy islohotlar bilan tanishtirish, bu islohotlarning aksariyati yozuvga bog`liq islohot ekanligini yetkazish, yozuvning o`ziga xos turi – okrigana haqida alohida to`xtalib o`tgan holda ma`lumotlarni yoritib berish hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagilar **BMI ning vazifalarini** tashkil etadi:

- Til islohotiga ta`rif berib o`tgan holda, yozuvning tildagi ahamiyatini o`rganish
- Mavzu bilan bog`liq tadqiqot ishlarini tahliliy o`rganish
- Yapon yozuvining bosqichma-bosqich shakllanib borish jarayonini manbalar asosida yoritib borish
- Yozuvning o`ziga xos turi – okurigananing yapon tili va jamiyatida tutgan o`rni haqida batafsil ma`lumot berish
- Okurigananing hozirgi kundagi holatini chuqur o`rgangan holda, okuriganani yozishda muammolarga duch kelayotgan o`quvchilar uchun muammo yechimlari to`g`risida ilmiy tahlillar va xulosalar berish.

**BMI ning o`rganilganlik darajasi.** BMI ning mavzusiga bog`liq ilmiy ishlar asosan yapon tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan. Ular orasida Yousuke Kotajima (Meisei universiteti) tomonidan 2005-yilda olib borilgan tadqiqotni keltirib o`tish mumkin. Kotajima tadqiqotining mavzusi “Iyerogliflarning yaponcha o`qilishida qatnashadigan okurigana” dir.

“Iyeroglifning yaponcha o`qilishi”ga kelsak, yapon tilida aksariyat iyerogliflarning ikki xil: yaponcha va xitoycha o`qilishi mavjud. Hozirgi kunda o`rta va yuqori maktab o`quvchilari uchun iyeroglifdan chiqadigan okurigana murakkab hisoblanadi. Ushbu tadqiqot diqqat markazida iyeroglifning yaponcha o`qilishida okuriganani qo`llashning o`rta va yuqori maktab o`quvchilariga mo`ljallanga oson usuli turadi. Tadqiqot davomida Tokio Davlat Universiteti va Vaseda Universitetlarining mutaxassisligi xitoy tili bo`lgan magistrantlari orasida xitoy tilida qo`llaniladigan iyerogliflar bilan yapon tilida qo`llaniladigan iyerogliflar bo`yicha mashqlar o`tkazib olingan. Bu tadqiqot Iyerogliflarning yaponcha o`qilishi tadqiqot kengashi tajribalari asosida amalga oshirilgan. Olib borilgan tadqiqot natijasida xitoy tilida qo`llaniladigan iyerogliflarning aniq javoblari yapon tilida qo`llaniladigan iyerogliflarning aniq javoblariga nisbatan ko`pligi aniqlandi. Ushbu natijadan kelib chiqib, iyeroglifning yaponcha o`qilishi borasida bilib olish muhim bo`lgan narsa bu – qaysi kana harfini qay holatda chiqarishga e`tibor qaratish lozimligi masalasi ekanligi xulosa sifatida qayd etildi. Aynan mana shu – iyeroglif yaponcha o`qilishining bosh asosiy qoidasi sifatida nomlanishi maqsadga muvofiq deb topilgan⁶.

Yana bir tadqiqot Tsugio Inoue (Oyama texnologiya milliy kolleji) tomonidan 2007-yilda olib borilgan. Tadqiqot mavzusi – “Okuriganadagi xatolar tahlili va okurigana qatnashgan iyerogliflarning qiyinchilik darajasi”. Kichikroq hajmdagi mazkur tadqiqotda okurigana qo`llanilishi bog`cha tarbiyalanuvchilari, maktab o`quvchilari, talabalar uchun qay darajada o`zlashtirilganligi, xatoliklarga moyillik qay darajada ekanligi, okurigana qo`llanilishining hozirgi holati, xatolar xilma-xilligi, xatoliklarga sabab bo`layotgan omil kabilar tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda Yapon iyerogliflarini bilish qobiliyatini tekshirish uyushmasi (qisqa qilib «Iyeroglif tekshirish uyushmasi» yoki «Iyeroglif tekshiruvi») ning tadqiqoti manba sifatida ko`rsatilib, okuriganani o`zlashtirishning hozirgi holati aniqlangan. Iyeroglif tekshiruvi tomonidan o`tkazilgan «Aniqlik-noaniqlik darajasi tadqiqoti»

⁶ 『漢文訓読における送り仮名』明星大学研究紀要【日本文化学部・言語文化学科】、第13号、2005年、ページ15-39

Iyeroglif tekshirish uyushmasi tomonidan 1999-yildan to 2003-yilga qadar amalda qoʻllagan 6-, 7- va 8- darajadagi savollari (imtihon topshirganlar orasida eng koʻpi boshlangʻich maktab oʻquvchilaridir) ga berilgan toʻgʻri, notoʻgʻri va belgilanmay qaytarilgan javoblari asosida oʻtkazilgan tadqiqot hisoblanadi. Bu safargi tadqiqotda (2007), okuriganani bilish qobiliyatini belgilovchi 816 ta savollarga berilgan aniq javoblar eʼtiborga olinishi belgilangan. Ushbu tadqiqotda okurigananing holati umumiy tahlil qilinib, xatolar diqqat markazida turgan holda tadqiqot diqqat markazida asosan xatolar oʻrin egalladi. Tadqiqot natijasiga koʻra, oʻtkazilgan 816 ta savolga berilgan oʻrtacha toʻgʻri javob miqdori foiz hisobida 81,1 % ni tashkil etdi. Savollar soni ortib borgani sayin toʻgʻri javoblar darajasi ham ortib bordi (205-savolgacha 60-80 % oraligʻida, 551-savolga kelib esa, 80 % dan yuqori). Biroq toʻgʻri javoblar darajasi 60 % dan past boʻlgan 60 ta savol (umumiy savollarning 7,4 % i) ham mavjud boʻlib (misol uchun, 冷やかす (hiyakasu-ustidan kulmoq), 勇ましい (isamashii-mard), 加わる (kuwawaru-qoʻshilmoq)), mazkur 60 ta savol 『送り仮名の付け方』 (“Okuriganano tsukekata” - “Okurigananing qoʻllanish usuli”) dagi alohida murakkablikka ega masala deb topildi. 816 ta savol ichida aniqlik darajasi 60 % dan past boʻlgan, yaʼni noaniqlik darajasi 40 % dan yuqori boʻlgan 28 ta “eng yomon” okuriganalar “kashf qilinib”, mazkur 28 ta soʻz yetarli darajada xato qilinishi oson boʻlgan okurigana sifatida qayd etildi⁷.

Ushbu tadqiqotlarning deyarli barchasi Yaponiya mamlakati hududida amalga oshirilgan boʻlib, barcha tadqiqotlar diqqat markazida yaponlarning oʻzlari turgan. Ammo diqqat markazida yapon tilini oʻrganuvchi chet elliklar turgan bu boradagi tadqiqotlar deyarli uchramaydi.

Tadqiqot obʼyekti va predmeti. Tadqiqot davomida anketa-soʻrovnoma oʻtkazilib, tadqiqot obʼyekti sifatida Toshkent davlat sharqshunoslik institutining 1-4-kurs talabalari tanlab olindi. Tadqiqot predmeti esa mazkur institut talabalari uchun moʻljallangan, taʼlim dasturidan joy olgan darsliklar, shuningdek, 1981-

⁷ 『送り仮名の誤答分析』 An Error Analysis on “Okurigana” in Japanese 小山工業高等専門学校研究紀要、第39号 (2007) 1—10、井上 次夫 TSUGIO INOUE

yildan beri amalda qo'llanib kelinayotgan 「送り仮名の付け方」 (Okuriganano tsukekata) – “Okurigananing qo'llanish usullari” hisoblanadi.

BMI ning ilmiy yangiligi yapon tilidagi yozuvning o'ziga xos ko'rinishi-okuriganani tushuntirib berishda yapon tilini endi o'rgana boshlagan o'quvchilar uchun yangi usul – ingliz tilidagi okuriganaga o'xshash unsurlar (analoglar) dan keng foydalanish, keyingi yuz yil mobaynida yapon jamiyatida yozuv bilan bog'liq amalga oshirilgan til islohotlari to'g'risida ma'lumotlarni yoritib berish, okurigana qo'llanilishida ahamiyat berish kerak bo'lgan nozik jihatlar: so'z turkumiga qarab okuriganani qay tarzda qo'llash ham farq qilishini va bu holda nimalarga e'tibor qaratish lozimligini tushuntirish bilan belgilanadi. Bundan tashqari boshqa yozuvlarda olib borilgan islohotlar qisqacha berib o'tildi, shuningdek, okurigana masalasi ko'tarilgan eng dastlabki manba ham keltirib o'tiladi.

BMI ning amaliy ahamiyati. Ushbu BMI yapon tilida amalga oshirilgan yozuv islohotlari to'g'risida to'liq ma'lumot berib, o'quvchilar tasavvurida yapon tilidagi yozuvlar xilma-xilligi, ularning qaysi vaziyatlarda qo'llanilishi, yozuvning okurigana ko'rinishi nima sababdan yapon tilida ahamiyatga molik ekanligi, uning qay tarzda rivojlanib, hozirgi kunga qadar yetib kelganligi, qaysi qoidalar to'plami asosida yozuv qoidasiga bo'ysunishi kabilarni yoritib berishda yordam beradi, degan umiddamiz.

BMI ning tarkibi. Ushbu BMI kirish, asosiy qismning ikki bobi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Mavzuni yoritishda yozuvga aloqador o'quv materiallari, yozuv islohotlariga bog'liq holda amalga oshirilgan tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

ASOSIY QISM

1-BOB. TILDA YOZUV ISLOHOTI VA YAPON YOZUVINI ISLOH QILISHGA QARATILGAN HARAkatLAR

1.1. Tildagi islohotga ta'rif

Islohot rasman – har qanday mazmundagi yangilikni joriy etish hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, aslida islohot deyilganda ko'p yoki oz darajadagi qayta o'zgartirish nazarda tutiladi. Har qanday islohot turli mamlakatlarda ularning ma'naviyati, madaniyati, intellektual salohiyati kabi o'ziga xos omillaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shu jumladan, tildagi islohot ham.

Tildagi islohot mamlakat miqyosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy ishlardan biri bo'lib, hukumat qonunga rioya qilgan holda, qanday ko'rinishdagi tilni ishlatishga qaror qilishini hal qiladigan rasmiy qaror yoki islohotdir. Hukumat yakka shaxs yoki guruhning o'z haq-huquqlarini yo'lga qo'ya bilishda muhim bo'lgan til qobiliyatini chuqurlashtiradigan va ushbu yakka shaxs yoxud guruh o'z tilini ishlata olishini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiradigan islohot– til islohotidir.

Tildagi islohot bu – ma'lum bir davlatning davlat tili yoki davlat tili bo'lmasa-da, asosiy qo'llaniluvchi tilda kelib chiqadigan muammoni hal qilish yoki uni yaxshilash uchun mazkur tilda sun'iy ravishda amalga oshiriladigan choralar demakdir.

Ko'pgina mamlakatlar maxsus yoki bir qancha tilning ishlatilishini qo'llab-quvvatlaydi yoki bir maromga keltiruvchi til islohotlarini amalga oshiradi. O'tmishga nazar solsak, mamlakatlar qanday qilib bo'lmasin yagona qo'llaniluvchi tilni rag'batlantirish maqsadida til islohotlarini ishlab chiqishar edi. Hozirgi kunga kelib esa vaziyat birmuncha o'zgargan bo'lib, o'z tilini chetdan kirib kelayotgan tillar ta'sirida yuzaga keladigan zararli oqibatlardan saqlash uchun islohot o'tkazayotgan davlatlarni ham talaygina uchratishimiz mumkin.

Endi bevosita mavzumizga bog'liq bo'lgan Yaponiyaga o'tadigan bo'lsak, Yaponiya uchun til islohoti bu – davlat tili yapon bo'lgan Yaponiyada yapon davlat organlari tomonida ishlab chiqiladigan, birinchi navbatda yapon xalqi uchun

mo'ljallab olib boriladigan, yapon tili doirasida amalga oshiriladigan islohotdir. Hammamizga ma'lumki, Yaponiya – asosan yaponlar istiqomat qiladigan, ya'ni bir millatli mamlakatdir. Shunday bo'lsa-da, mazkur mamlakatda oz sonli millat vakillarining tillari ham mavjud bo'ladigan vaziyatda, davlat tili bilan ushbu kam sonli millat vakillarining tillari orasidagi munosabatlar, aloqalar qarab chiqilib, bu tillarning islohoti ham xuddi davlat tiliniki singari bir xilda amalga oshiriladi. Bunga misollar ko'p. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kam sonli millat vakillari tilidagi muammolar bilvosita davlat tili islohotiga bog'liqdir.

1.2. Tilda yozuvning ahamiyati

Til islohoti juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, grammatika islohoti, alifbo islohoti, yozuv (imlo) islohoti, chetdan kirib kelgan o'zlashma so'zlar islohoti kabilarni o'z ichiga oladi. Ular ichida yozuv alohida ahamiyatga ega. Negaki yozuv – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biridir. Shuning uchun ham dastavval yozuvning tildagi ahamiyati haqida ikki og'iz so'z.

Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki til (nutq) ning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib kelgan. Og'zaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush to'lqinlari yetib borishi mumkin bo'lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi bositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat **yozuv** dunyoga kelgan.

Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq.

Yuksak takomillashtirilgan alifbodagi bir harf muayyan bir tovushni ifodalashi, bir tovush muayyan bir harf bilan ifodalanishi lozim. Ammo dunyoda bunday alifbo yo`q. Hozirda ingliz, fransuz va boshqa tillar alifbolari bunday mukammallikdan yiroq. Mana shu holat dunyo tillarining barchasida xilma-xil va juda ko`plab garfik va imlo qoidalarining ishlab chiqilishiga sabab bo`lgan.

Yozuv bilan til o`rtasida, alifbo va tilning tovush tizimi o`rtasida bunday farqli holarlarni yuzaga keltirgan sabablar xilma-xil. Avvalo, dunyodagi hozirda mavjud alifbolarning deyarli hammasi ham mustaqil va tegishli til xususiyatlarini to`liq hisobga olgan holda yaratilmagan. Ko`pchilik xalqlar o`z yozuvlarini boshqa til yozuvlarini o`z tillariga imkoniyat darajasida moslashtirish yo`li bilan yaratganlar. Bu hol yozuv va til munosabatlarida o`z izini qoldirgan.

1.2.1. Yozuvlar ustida amalga oshirilga islohotlar tarixidan

Yozuv va tilning taraqqiyoti bir xil, bir-biri bilan to`la mos keladigan jarayon emas. Tilning taraqqiyoti tarixiy va uzluksiz jarayon, odamlar tilga ataylab, ongli ravishda biron-bir o`zgartirish kirita olmaydilar. Tildagi u yoki bu o`zgarish tadrijiy ravishda, asta-sekin yuz beradi. Yozuv haqida esa bunday deb bo`lmaydi.

Mutaxassislar fikriga ko`ra, yozuv turini almashtirishga bir necha faktorlar ta'sir qiladi. Yozuv va imloga kiritiladigan o'zgarishlar turlichadir. Ijtimoiy turmush talabi bilan u yoki bu xalqning amaldagi yozuvi va imlosiga vaqti-vaqti bilan o'zgarishlar kiritish jahon tajribasida ko'p uchraydi. Bu o'zgarishlar quyidagicha bo'lishi mumkin: yozuv tizimini qisman o'zgartirish (harfiy belgilarni qo'shish yoki chiqarib tashlash, ularning yozilish shaklini o'zgartirish); yozuv tizimini butunlay o'zgartirish (bir yozuv tizimidan boshqa yozuv tizimiga o'tish, masalan, arab yozuvidan kiril yozuviga o'tish kabi); xalqning ilgari yozuvi bo'lmagan bo'lsa, mavjud yozuvlarning biri yoki bir nechasi yordamida yangi alfavit yaratish kabilar. Bundan tashqari ma'lum shart-sharoitlarda xalqni tarixdagi ilk yozuviga qaytarish qarorlari ham bo'lishi mumkin (masalan, Mo'g'uliston

Respublikasi tarixiy va hozirda hech qaysi o'lkada qo'llanmaydigan uyg'ur yozuviga qaytish haqida qaror qabul qildi).

Ana shu yuqorida sanab o'tilgan yozuvga doir islohotlar qator faktorlarning ta'siri ostida amalga oshishi yoki oshmasligi mumkin. Ularning orasidan quyidagi asosiy shart-sharoitlarni ajratib ko'tsatish mumkin bo'ladi:

- 1) sof lingvistik sabablar;
- 2) iqtisodiy sabablar;
- 3) ijtimoiy-siyosiy sabablar;
- 4) psixologik sabablar.

Yozuv tizimini o'zgartirishga olib keladigan shart-sharoitlar orasida eng ta'sirchan sabab ijtimoiy-siyosiy sabablar bo'lib, ular u yoki bu xalqning tarixida yuz bergan yozuv islohotlarining tamalida turadi.

Yozuv o'zgartirishda ahamiyati jihatidan ikkinchi sabab, bizningcha, sof lingvistik shart-sharoitlardir, ular ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarni "qo'llab-quvvatlovchi" sabablar hisoblanadi.

Psixologik shart-sharoitlar ko'pincha qisqa bir tarixiy muddatda yozuvning qabul qilgan va yozuvning asl "egasi" bo'lgan xalqlar o'rtasidagi etnik komplimentarlikning yo'qolishi natijasida yuzaga keladi. Tarixda bir vaqtlar ittifoqchi bo'lgan xalqlarning orasidagi nizo yoki etnik ayirmachilik sababli sovuqlik tushishi tufayli yozuv tizimini birinchisining "zarariga" almashtirish hollari ham bor.

Ma'lumki, har qanday yozuv islohoti kattagina moddiy xarajatlarni talab qiladi, bu xarajatlarni ma'lum bir tarixiy bosqichda u yoki bu davlatning iqtisodiyoti "ko'tarolmasligi" mumkin.

Qayd etish lozimki, yuqorida qayd etib o'tilgan shart-sharoitlarning biri yoki bir nechasi ayni paytda yozuv almashtirishning sabablaridan bo'lib chiqishi mumkin. Ko'pincha ijtimoiy-siyosiy sabablar psixologik sabablar bilan, psixologik sabablar lingvistik shart-sharoitlar bilan chatishib ketadi hamda biri ikkinchisini keltirib chiqarishi mumkin. Xuddi shuningdek, psixologik faktor alfavit islohotini to'xtatib turadigan shartlardan ham biridir. O'tgan asrning 20-30-yillarida Rossiya,

19-asrning ikkinchi yarmidan to 20-asrning 80-yillarigacha Yaponiyada (bu yerda so'nggi harf inqilobining tashabbuskori Amerika okkupatsion ma'muriyati bo'lgan edi) o'tkazilgan islohotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Odamlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun yozuvga turli o'zgartishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini boshqasi bilan almashtiradilar va ho kazo. Misol tariqasida ko'pgina xalqlarning bu kabi yozuv islohotlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Yapon yozuv islohotlari haqida so'z yuritishdan avval jahonda eng ko'zga ko'ringan yozuvlar ustida olib borilgan islohotlarga to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Har bir yozuvga ega bo'lgan xalq albatta ma'lum bir sababdan kelib chiqib, ma'lum bir maqsadda o'z yozuvini isloh qiladi. Tarixan ko'p xalqlar tomonidan qo'llanib kelingan arab yozuvi haqida ham shunday deyish mumkin. O'ngdan chapga tomon yoziladigan va o'qiladigan arab yozuvi hozirda 28 ta harf va 12 ta yordamchi belgiga ega. Arab yozuvining oldingi shakli kufiy yozuv deb atalgan. Arab yozuvida 12 ta yordamchi belgining kashf etilishi, harflarni bir-biridan farq qildiruvchi nuqtalarning qo'llanishi, ularning miqdori va joylashuvi, ya'ni ustki yoki ostki nuqtalar bo'lishining tayin etilishi bevosita Qur'oni Karim bilan bog'liq. Chunki arab yozuvi bir qancha arab bo'lgan va arab bo'lmagan xalqlar yozuvi hisoblanadi, eng avvalo u arab tilining yozuvidir, arab tili esa Qur'on tilidir. Islomshunos olimlarning guvohlik berishicha, islom yuzaga kelib tarqalguncha arablarda qo'llanilgan yozuv hijoziy deb atalgan. Hijozda tarqalgan Qur'oni Karim ilk oyatlari shu yozuvda bitilgan. Abu Bakr sahifalari, Usmon mus'haflari turli yordamchi shakl va nuqtalardan xoli yozilgan, unga juz'lar, hiztlar va boshqa ko'rsatkichlar alomati qo'yilmagan. Qur'oni Karim va boshqa yozma asarlar kufiy yozuvda ham bitila boshlandi. Chunki bu yozuv oldingisiga qaraganda mukammal edi.

Islomning Ajam (arab bo'lmagan) mamlakatlariga ham yoyilishi yozuvda qisqa unlilarning bo'lishini zaruratga aylantirdi. Natijada 688-yilda Iroq voliysi Ziyod ibn Abihi Abul Asvad Duvaliyga nahv (sintaksis) darsligi yaratishni buyurdi. U qisqa unlilarni (a, i, u) harf ustiga, ichiga va ostiga nuqta qo'yish bilan belgiladi.

Ikkinchi isloh umaviy xalifalardan Valid ibn Abdul Malik Marvon davrida amalga oshirildi.

Ibn Xallikon “At-tas’hiḥ” (“Noto’g’ri talaffuz”) kitobida shunday yozadi: “Odamlar qirq yildan ziyod, to Abdul Malik ibn Marvon zamonigacha Usmon mus’haflarini o’qishda davom etdilar. Iroqda noto’g’ri talaffuz qilish kuchayib ketgandan so’ng, Hajjoj o’z kotiblariga shakli o’xshash harflarni bir-biridan ajratish uchun belgilar tayin qilishni buyurdi. Nasr ibn Osim bu vazifani o’z zimmasiga oldi. Natijada, arablar hijriy 1-asr 2-yarmidan, ya’ni umaviylar davrida nuqta va harakat belgilarini qo’llay boshladilar. Abul Asvad Duvaliy harakat belgilarini va Nasr ibn Osim nuqtalarni joriy etishdi”.

Shunday qilib, hozirgi arab yozuvining ilk ko’rinishi kufiy deb atalgan.

18 shakldagi hozirgi arab yozuvi ustki va ostki nuqtalar va ularning soni bilan farq qiluvchi 28 harfdan iborat.

Yana bir mashhur yozuv turi bu – lotin yozuvidir. Lotin yozuvidagi qadimgi yodgorliklarda yozuv yo’nalishi ham o’ngdan chapga, ham chapdan o’ngga bo’lgan, miloddan avvalgi IV asrdan keyingina chapdan o’ngga qarab yozish barqarorlashgan. Bu davrdagi yozuvda tinish belgilari bo’lmagan, harflar bosh (katta) va kichik harflarga ajratilmagan. Kitob bosish ishlari yo’lga qo’yilganidan keyin, tinish belgilari, diakritik belgilar paydo bo’ldi, bosh va kichik harflar farqlana boshlandi.

Hozirgi lotin yozuvi 2 xil tipografik shaklga ega: asl lotin harflari (ikkinchi nomi – “antikva”) va got yozuvi (“fraktura” deb ham ataladi). Ularning birinchisi, ya’ni lotin harflari eng qadimgi alifboga yaqin bo’lib, hozirgi amaliyotda, asosan, ana shu harflardan foydalaniladi.

Rim imperiyasi qulagach, xususan, VIII asrdan e’tiboran lotin yozuvi G’arbiy Yevropadagi ko’plab xalqlarning yozuv tizimlari uchun asos bo’ldi. Hozirgi davrda dunyo tillarining 30-35 % i (jumladan, o’zbek tilida ham kirill alifbosi bilan bir qatorda) lotin alifbosidan foydalanadi. Ammo milliy yozuv tizimlari lotin aslifbosiga asoslangan xalqlarning alifbolaridagi harflar tarkibi,

albatta qadimgi lotin alifbosidan farq qiladi. Lotin alifbosining tegishli fonetik tizimlarga moslashuvi diakritik belgilarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

Kirill yozuvi ham qadimgi yozuvlar sirasiga kiradi. Kirill yozuvining tarkibi va shakllari vaqt-vaqti bilan o'zgartirib turilgan. Rossiyada 1708-yili Pyotr I farmoyishiga ko'ra, bosma kirill yozuvi raqami iste'moldan chiqarilgan. Bolgar, belorus, rus, serb, ukrain yozuvi slavyan kirill yozuvi asosida (qo'shimcha harflar va diakritik belgilar kiritish bilan) yaratilgan. Ko'pgina xalqlar rus tilida XX asrning 30-40-yillarda amalda bo'lgan kirill yozuviga ayrim o'zgartishlar kiritib, o'z yozuvlarini belgiladilar.

Yapon yozuvi shakllanishida katta ta'sir o'tkazgan xitoy yozuvi, ya'ni xitoy iyerogliflari ham islohotdan mustasno emas. 1958-yilda Xitoy Xalq Respublikasi Xitoy iyerogliflarini isloh qilish qo'mitasi tomonidan iyerogliflarning talaffuzi uchun lotin grafikasi asosida 26 harfdan iborat transkripsion alifbo qabul qilindi. Ushbu alifbo hozirgi kunda jamiyatning barcha sohalarida keng qo'llanmoqda. Xitoy yozuvini isloh qilish va alifboli yozuvga o'tish lahjalarning ko'pligi va tarqoqligi, madaniy meros va til muammolari sababli katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. 1956-yildan XXR da iyerogliflarni grafik jihatdan soddalashtirish ishlari olib borilmoqda.

O'rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, pahlaviy, urxun-yenisey (runik), turkiy (uyg'ur), sug'd, arab, kirill, lotin yozuvlaridir.

Hozirgi kunda o'zbek tilida yozuv ikki xil alifbo asosida amalga oshiriladi: kirill va lotin alifbolari. Ammo bu har ikkala yozuv ham o'zbek tili uchun XX asrda kirib kelgan yangi yozuvlar hisoblanadi. Ungacha esa, ya'ni VIII asrdan to XX asr boshlarigacha arab yozuvi amalda qo'llanilgan. XI asrdan boshlab esa, arab grafikasi asosida shakllangan o'zbek yozuvi qo'llanila boshlangan. Bu – eski o'zbek yozuvi edi. Eski o'zbek yozuvida arab alifbosidagi 28 ta harfga arab tilida bo'lmagan, lekin eroniy va turkiy tillarga xos bo'lgan tovushlarni ifodalash uchun yana 4 ta harf (p, ch, j (ajdar), g) qo'shish bilan shakllantirilgan.

Eski o'zbek yozuvida sof o'zbekcha (turkiy) so'zlardagi deyarli barcha unli va undosh tovushlar alohida harflar orqali ifodalanadi. Biroq o'zbek tilidagi arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlarda undosh tovushlar va o, u, i cho'ziq unlilarigina yoziladi; qisqa unlilar talaffuz etilsa-da, ular alohida harfga ega bo'lmaydi. Yozuvda aks etmaydigan qisqa unlilarni va boshqa fonematik holatlarni ko'rsatish uchun esa harakatlar deb ataladigan va tegishli undoshlar ustiga yoki ostiga qo'yiladigan 10 dan ortiq belgilar mavjud.

Eski o'zbek yozuvi ustida ham islohotlar olib borilgan. Jumladan, 1920-21-yillarda bir qancha o'zbek ziyolilari, jumladan, Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" a'zolari tomonidan eski o'zbek yozuvi jiddiy isloh qilindi. Bunda o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan 6 ta unli tovush uchun maxsus harflar (o, a, u, o', i, e unlilari uchun maxsus harflar) joriy qilindi, faqat arabcha so'zlardagina uchraydigan, o'zbek tili uchun yot bo'lgan ث (ingliz tilidagi "thing" so'zidagi dastlabki "th"ni ifodalovchi tovush) ح ط ظ ص ض ع ح harflarini alifbodan chiqarish, ف (f) harfining qo'llanishini chegaralash haqida qaror qabul qilindi. 1921-yil yanvarda bo'lib o'tgan Til-imlo qurultoyining maeriallari ana shu islohga amal qilib nashr etilgan dastlabki kitob bo'ldi.

Shuni aytib o'tish kerakki, mazkur islohgacha eski o'zbek yozuvida imlo, ya'ni so'zlarning to'g'ri yozilishida, diakritik va punktuatsion belgilarning ishlatilishida izchillik, barqarorlik bo'lmagan. Isloh natijasida yuqoridagidek kamchilik va nuqsonlar ma'um darajada bartaraf bo'ldi.

O'zbek yozuvi 1929-yilda lotin grafikasi, 1940-yilda rus grafikasi asosida shakllantirilgach, eski o'zbek yozuvini o'qish-o'rganish nihoyatda sustlashdi, hatto bunga qarshiliklar ham bo'ldi; uni bilivchilar doirasi ancha toraydi.

Sovet davrida o'zbek kirill yozuvi bo'yicha ham islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, rus tilida mavjud, ammo o'zbek tilidagi so'zlarda uchramaydigan «ы», «ь», «щ» harflarini qay tarzda belgilash bo'yicha masalalar hal qilindi. Unga ko'ra Grigorian taqvimidagi «ь» harfi qatnashgan oy nomlari (masalan, «октябрь») o'zbek kirill alifbosida «ь» siz yoziladigan bo'ldi («октябр»). Bundan tashqari, o'zbek tilida talaffuz qilinganda deyarli sezilmaydigan «и» harfi qatnashgan

soʻzlarni yozishda aynan shu «и» harfidan voz kechish toʻgʻrisidagi islohotlar oʻtkazildi. Masalan, “билан” soʻzi “блан” tarzida yoziladigan boʻldi. Bunga oʻxshash islohotlarga misollarni yana keltirib oʻtish mumkin.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan koʻp oʻtmay, yaʼni 1993-yil, 2-sentabr kuni “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida”gi qonunni qabul qildi. Bu qonunga va uni amalga kiritish tartibi haqidagi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaroriga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda oʻzgarishlar kiritadigan qonun qabul qildi. Bu hujjatga koʻra lotin yozuviga asoslangan yangi oʻzbek alifbosi 26 ta harf va 3 ta harflar qoʻshilmasi (sh, ch, ng) dan iborat. Yangi alifboga toʻla oʻtish 1996-yildan boshlanib, 2005-yilda tugallanishi belgilangan boʻlsa-da, ayni paytda ham lotin, ham kirill alifbolari amalda qoʻllanilib kelmoqda. Shuningdek, mazkur qonunda arab alifbosini, yaʼni eski oʻzbek yozuvini oʻrganish va undan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinishi alohida qayd etilgan.

1.3. Yapon yozuvini shakllantirishning ayrim masalalari

Yapon tili ham koʻpgina islohotlar amalga oshirilgan tillardan biri hisoblanadi.

Yapon tili turkiy, mongol (moʻgʻul), manjur tillar guruhlar va koreys tili bilan birga Oltoy tillari oilasiga kiradi⁸. VI asrgacha yapon tili oʻz yozuv tizimiga ega emas edi va VI asrda Yaponiyada Xitoy yozuvi ishlatilishi boshlanadi, deb qaraladi. Shu vaqtlarda yaponlar klassik xitoy yoki yapon-xitoy gibrid usulida yozishgan. Ushbu usulda xitoy iyerogliflari xitoy tilidan olingan soʻzlar hamda shu maʼnoni bildiradigan yapon soʻzlari uchun ishlatilgan. Ayni vaqtda bir qator iyerogliflarning fonetik ifodasi yapon tilida keng miqyosda mavjud grammatik qoʻshimchalarni talaffuzda ifodalash uchun ishlatilgan. Shunday iyerogliflarning

⁸ Karimova Umida Baxtiyor qizi. “Yapon tili alifbosi loyihalari va ularning belgilarini yozish qoidalari”, Toshkent, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2007.3-bet.

soddalashtirilgan shakllari paydo bo'lgan va ular asosida xiragana va katakana sillabariylari yaratilgan.

Yapon yozuvi soʻz-boʻgʻinli (ideografik-sillabik) aralash yozuv hisoblanadi. Bunda iyerogliflar va boʻgʻinli belgilar qoʻshilib ketadi. Aynan shu iyerogliflarga qoʻshilgan soʻzning boʻgʻin qismi biz uchun tanish boʻlgan okuriganadir. Yapon tilidagi matnlarni yozishda qoʻllanadi. Hozirgi yapon yozuvi tizimida asosan, 2 turli belgilar – iyerogliflar (yaponchada 漢字 – kanji – xitoy yozuvi) va boʻgʻinli belgilar (“kana”lar) qoʻllanadi. Bugungi kunda bu tizimga yana fonemaviy belgilar – lotin alifbosi (yaponcha ローマ字 – roomaji – Rim yozuvi) ham kirib kelmoqda. Yapon yozuvi vertikal ustun shaklida boʻlib, belgilar yuqoridan quyiga tomon, ustunlar esa oʻngdan chapga qarab joylashadi. Keyingi paytlarda uning gorizontal holatda chapdan oʻngga qarab yoziladigan shakli ham qoʻllanilmoqda.

Xitoyliklarning iyeroglifik yozuvi Yaponiyaga milodiy IV-V asrlarda kirib kela boshlagan va oʻsha davr ziyolilari uchun oʻrganish majburiy hisoblangan. Xitoy va yapon tillari uslubiy tuzilish jihatidan jiddiy farq qilganligidan iyeroglifik matnlarni oʻqish ancha qiyin boʻlgan. Shunday boʻlsa ham, yaponlarning dastlabki yozma yodgorligi – “Kojiki” (古事記, afsona va rivoyatlar toʻplami, 712-yil) xitoy iyerogliflari va xitoy tili grammatikasi asosida yozilgan. Keyinchalik iyerogliflar bilan bir qatorda ularning xitoycha oʻqilishi (“音” – “on”, tovush degan maʼnoda) ham muayyan fonetik oʻzgarishlarga uchragan holda oʻzlashtiriladi; ayni paytda iyerogliflarning maʼno jihatdan mos keladigan yaponcha talaffuz qilish shakli (“訓” - “kun”) ham paydo boʻladi. Yaponiyaning oʻzida ijod qilinga iyerogliflarning barchasi faqat “kun” usulida, yaponcha oʻqiladi.

Iyerogliflarning fonetik qoʻllanishi milliy yozuvning paydo boʻlishiga imkon artadi. VIII asda yaratilgan “Man’oushuu” nomli asarda baʼzi iyerogliflar boʻgʻinli belgi sifatida ishlatilgan. Iyerogliflar grafik koʻrinishining oʻzgarishi esa IX asrda kananing xilma-xil koʻrinishlarida vujudga kelishiga sabab boʻlgan. X asrda esa ularning faqat k a t a k a n a va x i r a g a n a keng qoʻllana boshlaydi. Har ikkala alifbodagi belgilar shaklan farq qilsa-da, maʼnoviy (fonetik) jihatdan tengdir.

Katakana bosma iyerogliflarning qisqargan shakli sifatida kelib chiqqan va asosan, yangi o'zlashma so'zlarni yozish uchun qo'llanadi, xiragana esa iyerogliflarning to'liq (qo'l) yozma shakli bo'lib, asl yaponcha so'zlarni, yordamchi so'zlar va qo'shimchalarni yozish uchun qo'llanadi. Kana yozuvida asosiy belgilar 48 ta, kananing har ikki turi hisobga olinsa, ularning umumiy soni 96 ta bo'ladi. Bularga 60 dan ortiq hosila, qo'shimcha belgi 2 ga ko'paytirib qo'shilsa, kanadagi belgilarning umumiy soni 170 taga yetishi mumkin.

Iyerogliflar hamda xiragana va katakananing, qisman lotin harflarining aralash qo'llanishi iyerogliflarning 2 turli ("on" va "kun") o'qilishi yapon yozuvini nihoyatda murakkablashtirgani sababli 1946-yili kana yozuvi imlosi isloh qilinadi; shu bilan birga, faqat 1850 iyeroglifni qo'llash rasman tavsiya etiladi (o'sha paytda bu iyerogliflar "touyoukanji" deb atalgan, hozirda esa kundalik hayotda qo'llaniladigan iyerogliflar "jouyoukanji" deb ataladi va "jouyoukanji"da iyerogliflarning miqdori 1947 tani tashkil etadi). Lekin amalda qo'llanayotgan iyerogliflar soni tavsiya etilganlaridan ko'ra ko'proqdir. Yaponiyada yozuvni soddalashtirish ustida olib borilayotgan ishlar hanuz davom etmoqda. Lekin hozircha xitoy iyerogliflaridan voz kechish yoki yapon yozuvini lotin grafikasiga ko'chirish yo'lida qilinayotgan harakatlar muvaffaqiyatsiz bo'lmoqda. Buning sabablaridan biri – asrlar mobaynida yaratilgan yozma yodgorliklar, ya'ni boy manadiy merosni kelgusi avlodlarga aynan, buzilmagan holda yetkazib berish istagidir⁹.

Yaponiyada Meiji davri (1868 – 1912) dan keyin davlat tiliga bog'liq amalga oshirilgan islohotlar asosan alifbo va imlo, ya'ni yozuv bilan bog'liq islohotlarga tomon burilish yasadi. Yozuvdan tashqari boshqa til islohotlariga deyarli qo'l urilmadi. Qo'l urilganlari ham juda kam bo'lib, bular Meiji davri adabiy tilini chegaralash, 1952-yilgi 「これからの敬語」 ("Korekarano keigo" –

⁹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 10-jild, 2005, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 395-bet.

“Yaqin kelajakdagi hurmat ifodasi”) va 1995-yilgi 「ら抜き言葉」 (“Ranuki kotoba” – “Ra”siz soʻzlar”) kabi uncha mashhur boʻlmagan ishlardir¹⁰.

Quyida urushdan keyin amalga oshirilgan yozuvga bogʻliq islohotlar tarixini yozuv turlari boʻyicha tartib bilan keltirib oʻtamiz. Ular orasidan ahamiyatga moliklarini **ajratib** koʻrsatamiz.

A. Hiragana

(1) 1946-yil. 「現代かなづかい」 (“Gendai kanadzukai” – “Zamonaviy kana qoʻllanilishi”)

Ushbu islohotda qadimdan qoʻllanib kelingan kanalarning hozirgi kundagi talaffuzi asosida yozuvga aylanishi koʻrib oʻtilgan.

(2) **1986-yil. 「現代仮名遣い」 (“Gendai kanadzukai” – “Zamonaviy kana qoʻllanilishi”)**

Bunda esa endi kana boʻyicha meʼyoriy qoidalar qabul qilingan.

B. Katakana

(1) 1954-yil. 「外来語の表記について」 (“Gairaigono hyoukini tsuite” – “Oʻzlashma soʻzlarning imlosi haqida”)

Bu islohot kundalik hayotda qoʻllaniluvchi oʻzlashma soʻzlarning yozuvda ifodalanishi asosiy qoidalari bilan tanishtirdi.

(2) **1991-yil. 「外来語の表記」 (“Gairaigono hyouki” – “Oʻzlashma soʻzlarning imlosi”)**

Ushbu islohot chet el joy nomlari va shaxs nomlarini oʻz ichiga oluvchi oʻzlashma soʻzlarning imlosini aniqlab berdi.

C. Lotin harflari (ローマ字—Roomaji)

1954-yil. 「ローマ字のつづり方」 (“Roomajino tsudzurikata” – “Lotin harflarini toʻgʻri yozish”)

Lotin harflarining toʻgʻri yozilishini koʻrsatib berib, qoʻshimcha tarzda Xepbyornning lotin transkripsiyasi (toʻgʻri talaffuzi) ga ruxsat berildi.

¹⁰ 「よくわかる文法」、藤原雅憲、「よくわかる文法」 1999年12月25日 初版発行（2008年4月30日、10刷発行）、ページ191.

D. Okurigana

(1) 1959-yil 「送りがなのつけ方」 (“Okuriganano tsukekata” – “Okurigananing qo`llanilish usuli”)

Touyou iyerogliflarining xitoycha va yaponcha jadvallarini tartibga keltirib, ularning me’yorini belgilab berdi.

(2) 1973-yil. 「送りがなの付け方」 (**“Okuriganano tsukekata” – “Okurigananing qo`llanilish usuli”**)

「行なう」 (“okonau” – “o`tkazmoq”) kabi okuriganasi uzun bo`lgan so`zlarni bir maromga keltirdi.

E. Iyerogliflar (漢字—Kanji)

(1) 1946-yil. 「当用漢字表」 (“Touyoukanjihyou” – “Touyou iyerogliflari jadvali”)

Kundalik hayotda qo`llaniladigan 1850 ta iyerogliflarni aniqlab berdi.

(2) 1948-yil. 「当用漢字別表」 (“Touyoukanji betsuhyou” – “Touyou iyerogliflariga qo`shimcha jadval”)

Majburiy ta’limda qo`llaniladigan 881 ta iyeroglif belgilarini aniqlab berdi.

(3) 1948-yil. 「当用漢字音訓表」 (“Touyoukanji onkunhyou” – “Touyou iyerogliflarining xitoycha va yaponcha (o`qilish) jadvali”)

Iyerogliflarning tartibi va talaffuzini tartibga keltiruvchi islohot o`tkazildi.

(4) 1949-yil. 「当用漢字字体表」 (“Touyoukanji jitaihyou” – “Touyou iyerogliflarining shakli jadvali”)

Iyerogliflar shaklining me’yorini aniqlab berdi.

(5) 1951-yil. 「人名漢字別表」 (“Jinmei kanji betsuhyou” – “Shaxs nomlari iyerogliflarining qo`shimcha jadvali”)

Touyou iyerogliflaridan tashqari boshqa, shaxs nomlarini ifodalash uchun qo`llanilishi mumkin bo`lgan iyerogliflarni aniqlab berdi.

(6) 1973-yil. 「当用漢字音訓表」 (**“Touyoukanji onkunhyou” – “Touyou iyerogliflarining xitoycha va yaponcha (o`qilish) jadvali”**)

Iyerogliflarning tartibi va talaffuziga qo`shimchalar kiritildi.

(7) 1981-yil. 「常用漢字表」 (“Jouyoukanjiyou” – “Jouyou iyerogliflari jadvali”)

95 ta iyeroglif qo`shimcha tarzda kiritilib, umumiy iyerogliflar soni 1945 taga yetdi¹¹.

1.3.1. Xiragana yozuvi islohotlari

Xiragana sillabariysi belgilari xitoy iyerogliflaridan quyida ko`rsatilgan usul bilan paydo bo`lgan. Xiragana dastlab “onnade”, ya’ni “ayollar qo`li” deb nomlangan, chunki xiragana ilgari asosan ayollar tomonidan foydalanilgan. Erkaklar esa kanji va katakanadan foydalanishgan. X asrdan boshlab barcha insonlar tomonidan foydalaniladigan bo`lgan. Hozirgi vaqtda xiragana “oddiy sillabariyga asoslangan yozuv” deb tushuniladi¹².

Xiragananing boshlang`ich variantlarida ko`pincha bir bo`g`inni ifodalash uchun ko`p va har xil iyerogliflar ishlatilgan, lekin asta-sekin bu tizim soddalashib bir fonetik bo`g`in uchun bir iyeroglif (yoki uning soddalashtirilgan shakli) ishlatiladigan holatga kelgan. Xiragananing orfografiyasi yapon hukumati tomonidan 1946-yili kuchga kiritilgan bo`lib, bu islohotning nomi 「現代かなづかい」 (“Gendai kanadzukai” – “Zamonaviy kana qo`llanilishi”) deb atalgan. Ushbu islohotda qadimdan qo`llanib kelingan kanalarning hozirgi kundagi talaffuzi asosida yozuvga aylanishi ko`rib o`tilgan.

Quyida keltirilgan xiragana sillabariyida har bir ustunda birinchi bo`lib chapda roomaji (ya’ni lotin alifbesi asosidagi belgi), o`rtada xiragana belgisi va keyin o`ngda ushbu belgi paydo bo`lishi uchun asos bo`lgan kanji belgisi ko`rsatilgan. Ba’zi xiragan belgilarining qaysi kanji belgilaridan paydo bo`lganligi haqida muayyan bahs hali ham mavjud.

¹¹ 「よくわかる文法」、藤原雅憲、「よくわかる文法」、1999年12月25日 初版発行（2008年4月30日、10刷発行）、ページ191－192.

¹² Karimova Umida Baxtiyor qizi. “Yapon tili alifbosi loyihalari va ularning belgilarini yozish qoidalari”, Toshkent, O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2007.4-bet.

a	あ	安	i	い	以	u	う	宇	e	え	依	o	お	於
ka	か	加	ki	き	幾	ku	く	久	ke	け	計	ko	こ	己
sa	さ	左	shi	し	芝	su	す	寸	se	せ	世	so	そ	曾
ta	た	太	chi	ち	知	tsu	つ	川	te	て	天	to	と	止
na	な	奈	ni	に	仁	nu	ぬ	奴	ne	ね	祢	no	の	乃
ha	は	波	hi	ひ	比	fu	ふ	不	he	へ	部	ho	ほ	保
ma	ま	末	mi	み	美	mu	む	武	me	め	女	mo	も	毛
ya	や	也				yu	ゆ	由				yo	よ	与
ra	ら	良	ri	り	利	ru	る	留	re	れ	礼	ro	ろ	呂
wa	わ	和	wi	ゐ	為				we	ゑ	恵	wo	を	遠
												n	ん	

Xiraganadagi “wi” va “we” belgilari Yaponiya Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi tomonidan 1946-yili o’tkazilgan Til islohotlari borasida eskirgan belgilar sifatida iste’moldan chiqarilgan. Grammatik elementlar sifatida ishlatilayotganda “ha”, “he” va “wo” belgilari “wa”, “e” va “o” tarzida talaffuz etiladi¹³.

Qo’shimcha belilar diakretik belgiar yordamida yoki sillabariy belgilari kombinatsiyalari asosida shakllantiriladi:

ga	が	gi	ぎ	gu	ぐ	ge	げ	go	ご
za	ざ	ji	じ	zu	ず	ze	ぜ	zo	ぞ
da	だ	ji	ぢ	dzu	づ	de	で	do	ど
ba	ば	bi	び	bu	ぶ	be	べ	bo	ぼ
pa	ぱ	pi	ぴ	pu	ぷ	pe	ぺ	po	ぽ

¹³ Karimova Umida Baxtiyor qizi. “Yapon yozuv tizimi rivoji muammolari”, Toshkent, O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2008, 10-11-betlar

kya	きゃ	kyu	きゅ	kyo	きょ
gya	ぎゃ	gyu	ぎゅ	gyo	ぎょ
sha	しゃ	shu	しゅ	sho	しょ
ja	じゃ	ju	じゅ	jo	じょ
cha	ちゃ	chu	ちゅ	cho	ちょ
nya	にゃ	nyu	にゅ	nyo	にょ
hya	ひゃ	hyu	ひゅ	hyo	ひょ
bya	びゃ	byu	びゅ	byo	びょ
pya	ぴゃ	pyu	ぴゅ	pyo	ぴょ
mya	みゃ	myu	みゅ	myo	みょ
rya	りゃ	ryu	りゅ	ryo	りょ

Xiragana sillabariysi 48 ta sillabariy belgisidan iborat. U asosan soʻzdagi qoʻshimchalarni yozish uchun ishlatiladi va soʻzning bu qismi yapon tilida “okurigana” deyiladi. Xiragana yana bolalar uchun yozilgan matnlarda, oʻquv qoʻllanmalarida, kanji bilan odatda yozilmaydigan yapon soʻzlarini yozishda va kanjidagi ifodalari eskirib qolgan yoki isteʼmoldan chiqarilgan soʻzlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Baʼzan xiragana kanji belgilari ustida yoki yonida talaffuzni ifodalash uchun ishlatiladi. Ayniqsa agar talaffuz eskirib qolgan boʻlsa, yoki nostandart boʻlsa. Xiragana shu tarzda ishlatilganda u “furigana” yoki “laʼl rang” deb ataladi. Gorizonta matnlarda furigana kanji ustida yoziladi. Vertikal matnlarda esa furigana kanjidan oʻngda yoziladi. Gazetalarda 1945 ta eng koʻp ishlatiladigan kanji belgilari roʻyxatiga kiritilmagan kanjilar uchun furigana qoʻshib yozilishi zaruriy deb qaraladi. Amalda gazetalar bunday kanji belgilarini kamdan-kam ishlatadi.

1986-yili Yaponiya Vazirlar Mahkamasi tomonidan eʼlon qilingan 「現代仮名遣い」 (“Gendai kanadzukai” – “Zamonaviy kana qoʻllanilishi”) islohoti yapon

tilida hozirgi kunda qo'llanilayotgan kanalarning asosi bo'lib xizmat qildi¹⁴. 1986-yilgi xiragana islohoti 1946-yilgi islohotning yangicha tahriri edi. Bu islohot qoidalar 2 banddan iborat bo'lib, asosiy qoidalar to'plami 1-bandda, yozuvdagi istisno holatlar to'plami esa 2-bandda berib o'tilgan.

1-bandda yapon alifbosi “chokuon” (“直音”) (“gojuuon” (“五十音”) deb ham ataladi, bu yapon tilining amaldagi alifbosidir) va youonlarning jadvali keltirib o'tilgandan so'ng, quyidagi misollar keltirib o'tiladi:

あさひ（朝日） - asahi (chiqayotgan quyosh)、きく（菊） - kiku (xrizantema)、さくら（桜） - sakura、ついやす（費） - tsuiyasu (sarflamoq)、にわ（庭） - niva (bog'), ふで（筆） - fude (mo'yqalam)、もみじ（紅葉） - momiji (qayin)、ゆずる（譲） - yuzuru (qoldirmoq; joy bermoq)、れきし（歴史） - rekishi (tarix)、わかば（若葉） - wakaba (kurtak)、えきか（液化） - ekika (suyuqlashish)、しゃかい（社会） - shakai (jamiyat)、しゅくじ（祝辞） - shukuji (tabrik so'zi)、せいがくか（声楽家） - seigakuka (qo'shiqchi)、さんぽ（散歩） - sanpo (sayr).

しゅくじ（祝辞）、かいじょ（解除）、りゃくが（略画）

“Chokuon” (“直音”) va youon （拗音） lardan keyin qator va qo'sh undoshlar, shuningdek, uzun unlilar (bular yapon tilida “chouon” （長音） deb ataladi) kabilar taqdim etib o'tiladi. Qator va qo'sh undoshlarda muammolar yo'q. Uzun unlilarning yozilish qoidalar 2 esa quyidagicha izohlanadi:

A. ア(a) qatoriga bog'liq uzun unlilar a qatoridagi kanalarga “a” qo'shish orqali

Misol: おかあさん okaasan – (sizning) ona (ngiz)

B. イ(i) qatoriga bog'liq uzun unlilar i qatoridagi kanalarga “i” qo'shish orqali

Misol: おじいさん ojiisan – (sizning) bobo, buvi (ngiz)

¹⁴ 「よくわかる文法」、藤原雅憲、「よくわかる文法」、1999年12月25日 初版発行（2008年4月30日、10刷発行）、ページ191

C. ウ(u) qatoriga bog`liq uzun unlilar a qatoridagi kanalarga “u”
qo`shish orqali

Misol: きゅうり kyuuri – bodring

D. エ(e) qatoriga bog`liq uzun unlilar a qatoridagi kanalarga “e”
qo`shish orqali

Misol: ねえさん neesan – (sizning) ona (ngiz)

E. オ(o) qatoriga bog`liq uzun unlilar a qatoridagi kanalarga “u”
qo`shish orqali

Misol: おとうさん otousan – (sizning) ota (ngiz)¹⁵

1.3.2. Katakana yozuvi islohotlari

Katakana sillabariysi buddaviy ruhoniylar Xitoy matnlarining to`g`ri talaffuzini ta`minlash uchun IX asrda ishlatgan talaffuzi belgilangan Xitoy iyerogliflaridan paydo bo`lgan. Boshida bir yapon og`zaki nutqdagi belgi ko`p belgilar bilan ifodalangan, lekin yillar o`tib ushbu tizim tartibga kelgan. XIV asrdan boshlab asosan bir og`zaki bo`g`inga bir yozma sillabariy belgisi mos kelishiga erishilgan.

Katakana so`zi “kanji sillabariy yozuvi qismi” ma`noli so`zdan kelib chiqqan va amalda katakana belgilari kanji belgilarining bir qismini tashkil qiladi.

Katakana sillabariysi ham xuddi xiragana kabi 48 ta sillabariy belgisidan iborat. Dastlab “erkaklar yozuvi” sifatida qaralgan XX asrdan boshlab katakana asosan Xitoy so`zi be`lmagan so`zlarni, chet el nomlarini ifodalash uchun va telegrammalarda ishlatiladi. XX asrdan avval esa chet tillarda qabul qilingan so`zlar uchun kanji ishlatilgan.

Katakana yozuvi yana Yaponiyaning shimoliy oroli Hokkaidoda yashaydigan ainu xalqi tili uchun ham ishlatiladi.

¹⁵ 「よくわかる文法」、藤原雅憲、「よくわかる文法」 1999年12月25日 初版発行（2008年4月30日、10刷発行）、ページ193.

Quyida keltirilgan katakana sillabariysida har bir ustunda birinchi bo'lib chapda romaji (ya'ni lotin alifbosi asosidagi belgi), o'rtada katakana belgisi va keyin o'ngda ushbu belgi paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan kanji belgisi ko'satilgan. Ba'zi katakana belgilarining qaysi kanji belgilaridan paydo bo'lganligi haqida muayyan bahs hali ham mavjud.

a	ア	阿	i	イ	伊	u	ウ	宇	e	エ	江	o	オ	於
ka	カ	加	ki	キ	幾	ku	ク	久	ke	ケ	介	ko	コ	己
sa	サ	散	shi	シ	芝	su	ス	須	se	セ	世	so	ソ	曾
ta	タ	多	chi	チ	千	tsu	ツ	川	te	テ	天	to	ト	止
na	ナ	奈	ni	ニ	二	nu	ヌ	奴	ne	ネ	祢	no	ノ	乃
ha	ハ	八	hi	ヒ	比	fu	フ	不	he	ヘ	部	ho	ホ	保
ma	マ	万	mi	ミ	ミ	mu	ム	牟	me	メ	女	mo	モ	毛
ya	ヤ	也				yu	ユ	由				yo	ヨ	興
ra	ラ	良	ri	リ	利	ru	ル	流	re	レ	礼	ro	ロ	呂
wa	ワ	和	wi	ヰ	井				we	ヱ	恵	wo	ヲ	呼
												n	ン	

Katakanadagi “wi” va “we” belgilari Yaponiya Ta'lim vazirligi tomonidan 1946-yili o'tkazilgan Til islohotlari borasida eskirgan belgilar sifatida iste'moldan chiqarilgan. Grammatik elementlar sifatida ishlatilayotganda “ha”, “he” va “wo” belgilari “wa”, “e” va “o” tarzida talaffuz etiladi.

Qo'shimcha belilar diakretik belgiar yordamida yoki sillabariy belgilari kombinatsiyalari asosida shakllantiriladi¹⁶:

ga	ガ	gi	ギ	gu	グ	ge	ゲ	go	ゴ
za	ザ	ji	ジ	zu	ズ	ze	ゼ	zo	ゾ
da	ダ	ji	ヂ	dzu	ヅ	de	デ	do	ド
ba	バ	bi	ビ	bu	ブ	be	ベ	bo	ボ

¹⁶ Karimova Umida Baxtiyor qizi. “Yapon yozuv tizimi rivoji muammolari”, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2008, 13-bet

pa	パ	pi	ピ	pu	プ	pe	ペ	po	ポ
sha	シャ			shu	シュ	she	シェ	sho	ショ
ja	ジャ			ju	ジュ	je	ジェ	jo	ジョ
cha	チャ			chu	チュ	che	チェ	cho	チョ
fa	ファ	fi	フィ	fu	フ	fe	フェ	fo	フォ
va	ヴァ	vi	ヴィ	vu	ヴ	ve	ヴェ	vo	ヴォ

kya	キャ	kyu	キュ	kyo	キョ
gya	ギャ	gyu	ギュ	gyo	ギョ
nya	ニャ	nyu	ニュ	nyo	ニョ
hya	ヒャ	hyu	ヒュ	hyo	ヒョ
bya	ビャ	byu	ビュ	byo	ビョ
pya	ピャ	pyu	ピュ	pyo	ピョ
mya	ミャ	myu	ミュ	myo	ミョ
rya	リャ	ryu	リュ	ryo	リョ

„v“ harfi bilan boshlanadigan katakana belgilari yaqinda yaratilgan. Ushbu tovush odatda boshlang`ich „b“ harfi bilan ishlatilgan va ba`zi yaponlar hozirgacha ushbu shakldagi katakanani afzal ko`radi¹⁷.

Katakana quyidagi holatlarda qo`llaniladi:

(1) Jouyou (常用) iyerogliflari jadvali va undagi so`zlarning yaponcha va xitoycha o`qilish doirasida yozib bo`lmaydigan hayvon va o`simliklar nomlari

Misol uchun: ライオン (raion–sher), ニンジン (ninjin-sabzi), タマネギ (tamanegi-piyoz)

(2) Xorijiy mamlakatlarning geografik va shaxs nomlari

Mison uchun: ソウル (Souru-Seul), イルクーツク (Irukuutsuku-Irkusk), コソボ (Kosobo-Kosovo)

¹⁷ Karimova Umida Baxtiyor qizi. “Yapon yozuv tizimi rivoji muammolari”, Toshkent, O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2008, 12-14-betlar.

(3) Chetdan kirib kelgan o`zlashtirma so`zlar

Misol uchun: テレビ (terebi-televizor), コンピューター (konpyuutaa-kompyuter), インフレ (infure-gripp)

(4) Tovush va holatlarga taqlid so`z

Misol uchun: ワンワン (wanwan-vov-vov)、ノソノソ (nosonoso-yalqovlik holatiga nisbatan qo`llaniladigan taqlid so`z)、ゴッソリ (gossori-butunlay, to`liq kabi holatlarni ifodalash maqsadida qo`llaniladigan taqlid so`z)

(5) Vulgarizm va jargonlar

Misol uchun: ゴマスリ (gomasuri), インチキ (inchiki-firibgarlik) ピンハネ (pinhane)

(6) Nozik farqni ifodalash uchun, xiraganada yozilgan gap o`rtasidagi oshkorasizlikdan qochish paytida

Misol uchun: 出るクイは打たれた (Deru kui wa utareta.- Chiqish uchun to`squinlik qilinyapti. So`zma-so`z tarjimasi: Chiqish qozig`i qoqildi)

Xorijiy mamlakatlarning geografik va shaxs nomlari, chetdan kirib kelgan o`zlashma so`zlar 1991-yildagi 「外来語の表記」 („Gairaigono hyouki“ – O`zlashma so`zlar imlosi) asosida yoziladi¹⁸.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida yapon tilining yozuv islohoti, yanada aniqroq qilib aytadigan bo`lsak, yozuvning yuqorida ta`rifi keltirib o`tilgan okurigana turiga asosiy e`tiborni qaratgan holda tadqiqot olib boriladi. Dastavval, okurigananing ilmiy ta`rifini berib o`tgan holda, keyin esa, okurigananing qachon paydo bo`lganligi va qay tarzda takomillashib borganligi haqida to`xtalib o`tish maqsadga muvofiqdir.

¹⁸ 「よくわかる文法」、藤原雅憲、「よくわかる文法」1999年12月25日 初版発行（2008年4月30日、10刷発行）、ページ196.

2-BOB. OKURIGANANING YAPON YOZUVIDA TUTGAN AHAMIYATI

2.1. Okurigananing kelib chiqishi

Til mavjud ekan, undagi islohotlar ham til bilan yonma-yon mavjud bo'ladi. Til islohotlari mavjud tildagi muammolarni hal qilish bilan bir qatorda, til o'rganuvchilari uchun yetarli darajada yangi muammolarni ham keltirib chiqaradigan holatlar ham yo'q emas.

Yapon tilida bunday til islohotlarining biri sifatida okurigana (送り仮名) ni aytib o'tishimiz mumkin.

Avvalambor okurigana nimaligi haqida to'xtalib o'tsak. Yapon tilida yozuv o'ziga xos jihatga ega. Agar xitoy tilida yozuv sifatida amalda faqat iyerogliflar (漢字 – handzi, Xan harflari, Xitoydagi Xan sulolasi davrida vujudga kelgan, hozirda esa chet mamlakatlar uchun “iyeroglif” sifatida talqin qilinadigan harflar) , koreys tilida esa amalda faqat harflar (한글 – hangil – koreys alifbosi) qo'llanilsa, yapon tilida ulardan farqli ravishda iyerogliflar va harflar uyg'unligi namoyon bo'ladi. Bunda bir iyeroglif bir o'zi kelgan holda butun bir so'zni ifodalashi ham mumkin. Shu bilan birga, bir iyeroglif o'zidan keyin hiragana (yapon alifbosining turi, unda faqat yapon tiliga taalluqli bo'lgan so'zlarga yoziladi) ni chiqarib ham bir ma'noni (ba'zida bir gapni ham) ifodalashi mumkin. Misol uchun

私 は 学校 へ 行きます。

(Watashi wa gakkou e ikimasu)

“ Men maktab ga boraman ”

gapini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu gapda “私” (watashi) so'zi “men” degan ma'noni beradi. Bu holatda bir iyeroglifning o'zi bir so'zni ifoda etmoqda. Ammo “行きます” (ikimasu) so'zida eng birinchi turgan “行” iyeroglifi ketidan hiragananing uchta harflari (き – ki, ま – ma hamda す – su) chiqmoqda va iyeroglifni ham qo'shib hisoblaganda “ikimasu” (bormoq, boraman) fe'li hosil

bo'lmogda. Bu holatda iyeroglifdan so'ng harflarning chiqishiga sabab – bir iyeroglif bir o'zi kelgan holda butun bir ma'noni bera olmasligidadir. Shu va shunga o'xshash misollarda, ya'ni bir iyeroglif tanho kelgan holatda butun bir ma'noni ifodalay olmaydigan vaziyatda hiragana harflarining qo'llanilishiga zarurat tug'iladi. Aynan iyeroglifning ketidan chiquvchi va butun bir ifodani yetkazib berishga xizmat qiluvchi bu harflar yapon tilida “送り仮名” (okurigana – “okuri” – tarjimasi yuboruvchi, lekin bu yerda bog'lanuvchi, ulanuvchi ma'nolarida va “kana” – yapon tilidagi “kana” alifbolar tizimini ifodalovchi harflar, bu yerda unli bilan tugovchi so'zga qo'shilganligi bois “kana” so'zidagi jarangsiz “k” harfi jarangli “g” ga o'zgarib “kana”ga aylangan) deb ataladi.

Istalgan yapon matnida iyerogliflar, xiragana va katakana belgilari, qisman lotin yozuvlari, shuningdek, arab harflarini uchratish mumkin. Yagona ko'rinishdagi yozuvda yozish Yaponiyada juda kam uchraydigan holatdir: katakana faqat telegramma yozishda qo'llaniladi; faqat xiraganadan iborat yozuv esa kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarda uchraydi, shunday bo'lsa-da bu matnlarda eng oddiy iyerogliflarni ham uchratish mumkin, faqat iyeroglifdan iborat yozuv ko'cha reklamalari, e'lonlar, plakatlarda uchraydi, lekin bu holatlarda vaziyatdan kelib chiqib, xiragana yoki katakana alifbosi qo'llanilganligini ham uchratish mumkin. Yuqori darajadagi hujjatlarni yozishda 1946-yilgacha xiraganadan foydalanilmasdi. Hozirda esa bu qoidaga amal qilinmaydi¹⁹.

Yapon tilida yozuv kanji (iyeroglif) hamda kana (yapon alifbosi harflari) aralashmasiga asoslanadi. Ya'ni yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yapon tili iyeroglif bilan bir qatorda kana harflari ham ishlatiladigan yozuvga ega til hisoblanadi. Bu yozuvda kanji va kanalar bir-biridan alohida ishlatiladigan holatlar bilan bir qatorda, ikkalasi ham birgalikda kelib, bir butun so'z sifatida qo'llaniladigan holatlar ham talaygina. Iyeroglif ham, kana ham yaxlit bir so'z sifatida ishlatililib, iyeroglif ketidan chiquvchi kanaga okurigana deyiladi. Davr o'tishi bilan okuriganaga bog'liq bo'lgan islohotlar ham o'zgarib, bu islohotlar

¹⁹ Алпатов В. М. «Япония: язык и общество», Москва, «Муравей», 2003, с. 41-42.

okuriganani xato qilmasdan, osongina o`qilishiga sabab bo`lganligi bilan bir qatorda, yapon tilidagi ikki xil yozilishga ega bo`lgan 「行う」 va 「行なう」 (ularning har ikkalasi ham “okonau” deb o`qiladi, ammo ko`rib turganingizdek, kananing chiqishi ikkalasida ikki xil) fe`lining qaysi biri yozilish jihatidan to`g`ri, kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Okuriganaga bog`liq bo`lgan muammolar siyosat darajasiga ko`tarilgan muammo bo`lib, Yaponiyaning Ta`lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi (文部科学省 – Monbukagakushou) va mazkur vazirlik qoshidagi Davlat tilini ko`rib chiqish qo`mitasi tomonidan hal qilinadi. Shu sababli ham hukumat okurigana islohotlarini amalga oshirib, okurigananing asosiy qoidalarni e`lon qiladi (1959-yilgi “Okurigananing qo`llanilish usullari” to`g`risidagi Vazirlar mahkamasining qarori, yana 1973-yilgi “Tuzatishlar kiritilgan okurigananing qo`llanilish usullari” to`g`risidagi Vazirlar mahkamasining qarori kabilar). Vazirlar mahkamasi okurigana yozilishini imkon qadar yengillatishga doir islohotlarni e`lon qilgan. Ammo bu islohotlar muammoni hal qilish bilan bir qatorda, okurigananing boshqa tomondan murakkablashuviga sabab bo`lgan, degan fikrlar ham mavjud.

Nafaqat islohotlar, balki okurigana borasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar ham talaygina bo`lib, ular asosan okurigananing murakkablik jihatlariga e`tibor qaratilib amalga oshirilgan. Barcha tadqiqotlar diqqat markazida yaponlarning o`zlari turadi. Diqqat markazida yapon tilini o`rganuvchi chet elliklar turgan bu boradagi tadqiqotlar esa deyarli uchramaydi. Chet elliklar diqqat markazida turgan bunday tadqiqotlarning deyarli amalga oshirilmaganligiga sabab nafaqat ular, balki yaponlarning o`zlari ham ba`zida okuriganada muammolarga duch kelishlari hisoblanadi. Endi yapon tilini o`rganuvchi biror bir boshqa millat vakilining okuriganani qay darajada bilishini tasavvur qilish qiyin emas. Chunki ona tilida mavjud okuriganada yaponlarning o`zlari adashishar ekan, yapon bo`lmagan millat vakilining (masalan, o`zbek millati vakillarining) o`z ona tilida bunga o`xshash yozuv mavjud bo`lmasa uning yanglishishi tabiiydir.

Ta`kidlab o`tilganidek, yapon tilida yozuv “kanji kana majiribun” – “iyeroglif (kanji) va harflar (kana) aralashmasi asosidagi gap qurilishi”ga

asoslangan. Yapon tilida iyeroglifi mavjud bo'lib, faqat yaponcha bo'lgan (和語 – wago, yapon so'zlarining shakli va talaffuzi yaponcha bo'lgan so'zlar. Yapon so'zlarining yana 漢語 – kango, shakli va talaffuzi xitoycha bo'lgan turlari ham mavjud) so'zlar o'qilishini yengillashtirish uchun, agar yozuv vertikal tarzda yozilsa, iyeroglifning pastki tomoniga, agar yozuv gorizontal tarzda yozilsa, iyeroglifning o'ng tomoniga yoziladigan kana harflari (仮名 – kana, yapon yozuvida iyeroglif bo'lmagan, kundalik hayotda ishlatiladigan harflar, ya'ni alifbo harflari. Kana ikki xil bo'lib, biri 平仮名 – xiragana, ikkinchisi esa 片仮名 – katakanadir. Xiraganada faqat yaponcha so'zlar yozilsa, katakanada o'zlashma so'zlar yoziladi.) **okurigana** deb ataladi. Bu – so'zlarni yozish uchun iyeroglif va harflar bir paytning o'zida qo'llaniladigan aralashma yozuv turidir. Bu xildagi yozuvlar Edo davri (XVII asr) dayoq keng qo'llanila boshlangan, uning paydo bo'lishiga esa Xeian (IX-X asrlar) davrida yuzaga kelgan “kana majiribun” yozuv qoidasining mavjud bo'lganligi sabab bo'lgan. Ko'rib turganimizdek, aralash uslubdagi yapon yozuvi o'zining chuqur tarixiga ega bo'lib, bunga sabab bo'lgan bir qancha jihatlarni ham keltirib o'tishimiz mumkin. Ular orasida – yapon tilida “kana” alifbosi harflari hali kashf etilmagan o'sha davrda, xitoy tili yozuvi o'zlashtirilganligi sababi ham bor²⁰.

Xitoy iyerogliflarining Yaponiyaga kirib kelishi taxminan VI asrdan boshlangan va IX asrga kelib, ya'ni “katakana” va “hiragana” alifbolari paydo bo'lgan bo'lsa ham, bu iyerogliflarning obro'si allaqachon yuqori pog'onaga ko'tarilib bo'lgan edi. Yaponlar bir necha yuz yillar qo'llab kelgan iyerogliflardan osongina voz kechib qo'yolmasdilar. Ammo yapon tili grammatik qurilishi xitoy tilinikidan keskin farq qilardi, shuning uchun ham yozuvda avvalambor yapon so'zlariga o'zgartish kiritish zarurati tug'ildi. Chunki so'z shakli o'zgarishini iyerogliflar orqali tasvirlash ancha murakkabliklar tug'dirardi. Ma'lumki, yapon tilidagi so'zlarning 95 % i “undosh + unli + undosh + unli” tarzda, ya'ni undosh harfdan so'ng unli, yoki uning aksi, unlidan so'ng undoshlar keladigan so'zlardan

²⁰ Пряхина Л. В. «Окуригана в современном японском языке», Москва, «Муравей», 2002, с. 3

tashkil topgan. Aynan shu sababli, matnlarda soʻz maʼnosini oson tushunish va soʻz shaklini aniq tasvirlash uchun uchun iyeroglif bilan bir qatorda, ularga qoʻshib “kana” dan foydalaniladigan boʻldi. Soʻzning “kana”da yozilgan bu qismi – okurigana (davom ettiruvchi “kana” degan maʼnoni bildiradi).

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, “kana” yozuv tizimida 2 xil alifbo mavjud: hiragana va katakana. Xiragana va katakana hozirgi kunga qadar nasldan naslga oʻtib kelmoqda. Xiragana iyerogliflarni fonetik tovush sifatida namoyon etuvchi 万葉仮名 (“manyogana”) ni osonlashtirilgan usulda yozish hisoblanadi. Yaʼni iyerogliflar juda tez yozilganda, ular maʼnosi jihatidan iyeroglifligini saqlab qolsa-da, shaklan iyeroglifga emas, osonroq koʻrinishdagi harflarga oʻxshab qolgan. Shu tariqa xiragana alifbosi vujudga kelgan. Xiraganada 「源氏物語」 (“Genji monogatari” – “Shahzoda Genji haqida qissa”), 「枕草子」 (“Makurano souchi”), 「蜻蛉日記」 (“Tombo nikki” – “Tombo kundaligi”) kabi Heian davrida vujudga kelgan yapon adabiyoti durdonalari yozilgan.

Katakanaga keladigan boʻlsak, katakananing boshlangʻich asosi iyerogliflarning yaponcha oʻqilishi va buddaviylik yozuvlarining tartibi, iyerogliflarning xitoycha oʻqilishi kabilar uchun iyerogliflarning yoniga yoziladigan qoʻshimchalar, okurigana va furigana (iyerogliflarning oʻqilishi ularning tepasiga yozib qoʻyiladigan yozuv turi) lar boʻlgan. Katakanada ilgari iyeroglifning talaffuzini ifodalashda qoʻllanib kelingan boʻlsa, hozirda oʻzlashma soʻzlar va fonetik yozuv hisoblangan taqlid soʻzlarni yozishda keng qoʻllanilmoqda.

Kana harflarining shakli haqida Meiji davrida andaza ishlab chiqilgan.

Okurigana masalasini eng birinchi boʻlib koʻtargan shaxs Nakane Shuku hisoblanadi. U oʻzining “Yapon tili grammatik lugʻati” nomli asarining “Okurigana qoidolari” boʻlimi (1876) da okurigana iyeroglifning harakatini ifodalash uchun qoʻllanishini, uni qoʻllovchilar esa okurigana eski usulda, yoki qoida asosida qoʻllashi mumkinligini taʼkidlab oʻtadi.

“Okurigana qoidalari” vaqt o`tishi bilan o`zgarib bordi, buning natijasida esa okurigananing o`zi ham o`zgarib bordi.

Hozirgi kunda ba`zi til vakillari qo`llab kelayotgan yozuvlar ilgarigi ko`rinishidan farq qilgan. Masalan, hozirda vyetnam tilida lotin alifbosi qo`llansa-da, ilgari bu xalq yozuvida xitoy iyerogliflari qo`llanilgan. Yoki Indoneziyada hozirgi kunda qo`llaniladigan lotin alifbosi o`rnida ilgari mutlaqo o`zgacha yozuv amalda bo`lgan. Yaponlarda ham shunga o`xshash masala 1867-1868-yilgi Meiji inqilobidan va Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyingi dastlabki yillarda ko`tarilgan edi. O`sha paytlarda iyerogliflarga mutlaqo qarshi “Kanamojikai” uyushmasi hukumatga iyerogliflardan butunlay voz kechishni so`rab murojaat qilishgan. Bundan tashqari yuqorida ko`rib o`tilgan vyetnam va indonez tillari singari yapon tilini ham yuz foiz lotinlashtirish kayfiyatida bo`lganlar ham talaygina edi. Hukumat ularning talabini bajara olmasdi: iyerogliflarni qisqartirish, yoki tartibga keltirish muhokama qilinsa-da, ulardan voz kechish haqida hech qanday gap bo`lishi mumkin emas edi²¹.

Yapon tilida okurigana urushgacha asosan katakanada ifodalangan. Urushdan keyin esa katakana o`rniga xiraganadan foydalanish ommalashdi. Aynan shu davrlarda ko`pgina yozuv islohotlari o`tkazildi. Okurigana ham bundan mustasno bo`lmadi. 1959-yili Yaponiya Vazirlar mahkamasi “Okurigananing qo`llanilish usullari” to`g`risida qaror qabul qildi, yana 1973-yili esa Vazirlar mahkamasi “Tuzatishlar kiritilgan okurigananing qo`llanilish usullari” to`g`risida qaror qabul qildi. Ikkinchi qarorga 1981-yili yana bir bor tuzatishlar kiritilib, okuriganani qo`llash qoidalari 30 yildan ortiqroq vaqt mobaynida o`zgarmasdan hozirgi kunga qadar yetib keldi. Mazkur qoidalar jamlanmasi 7 asosiy qoidalarni o`z ichiga oladi. Ularning dastlabki 5 tasi bir iyeroglifli okuriganalar, oxirgi 2 tasi esa qo`shma so`zlarda uchraydigan okuriganalar haqida. O`z navbatida bir iyeroglifli so`zlar to`g`risidagi 5 qoidaning 1- va 2-lari tuslanuvchi so`z turkumlariga bag`ishlangan bo`lsa, qolgan 3 tasi tuslanmaydigan so`z turkumlariga bag`ishlangan. 7 ta qoidadan keyin esa ilova ham qo`shimcha tarzda berib

²¹ Алпатов В. М. «Япония: язык и общество», Москва, «Муравей», 2003, с. 50

o`tilgan<sup>22</sup>. Qoidalar jamlanmasidan o`rin olgan so`zlarning barchasi asosan uch turkum qoidalarida tasniflangan. Bular asosiy qoidalar (本則 honsoku), istisno holatlar (例外 reigai) va ishlatishga ruxsat beriladigan holatlar (許容 kyoyou) dir. Ularning (Okuriganano tsukekata) da berib o`tilgan ta`rifi quyidagicha:

本則(honsoku) – asosiy qoidalar – okurigananing qo`llanish qoidalarida asos vazifasini o`tab beruvchi qoidalar,

例外(reigai) – istisno holatlar – asosiy qoidalarda qo`llanilmaydigan, ammo qo`llanilishi odatiy tusga kirgan so`zlar nazarda tutiladi. Ular aynan odatiy tusdagi so`zlar bo`lib, asosiy qoidalarga bog`liq hisoblanmaydi.

許容(kyoyou) – ishlatishga ruxsat beriladigan holatlar asosiy qoidalarga bog`liq bo`lgan shakl bilan bir qatorda, qo`llanilishi odatiy tusga kirgan so`zlar nazarda tutiladi. Ular asosiy qoidaga bog`liq bo`lish bilan birga, odatiy tusdagi so`zlar hamdir²³.

2.1.1. Ingliz tilidagi analoglar (o`xshashliklar)

Ingliz tilida qo`llaniladigan va boshqa millatlar uchun tanish bo`lgan ba`zi so`zlar okuriganani imloviy tushinishda analog sifatida yordam beradi.

Ingliz tilida fe`lning tuslanishiga bog`liq misolni ko`rib chiqaylik. Ingliz tilida ko`chani yoki yo`lni kesib o`tmoq ma`nosini beruvchi “cross” so`zi bor. Bu so`z harakat nomini bildirsa “crossing” ya`ni kesib o`tish, chorraha ma`nosida keladi. Inglizlar va ingliz tilida so`zlashuvchilar “crossing” so`zini “Xing” tarzida yozadigan vaziyat ham mavjud. Xuddi shunday “piyodalar chorrahasi” ma`nosidagi “pedestrian crossing” so`zini ham ular “Ped Xing” tarzida yozishni ma`qul ko`rishadi. Bu yerda “cross” so`zi yagona harf – “X” sifatida berilmoqda.

²² 「新しい国語表記ハンドブック」【第四版】、1991年12月10日第1刷発行、1996年3月10日第5刷発行、発行所：株式会社三省堂、ページ183

²³ 「日本語表記ルールブック」2005年9月27日第1刷発行、2006年7月3日第2刷発行、日本エディタースクール、ページ29

“X” dan keyin esa faqat “-ing” qo`shimchasi chiqmoqda. Faraz qilaylik, “Xing so`zi” yaponcha so`z va bu yerda “X” iyeroglif, “-ing” esa iyeroglifdan keyin chiquvchi kana harflari, ular umumiy bir so`zni tashkil etadi va bir ma`noni beradi. Haqiqatan ham, biz ko`rib chiqqan “Xing” so`zi aslida “crossing” so`zi bilan bir xil kuchga ega. Agar buni yapon tilidagi okurigana bilan tushuntiradigan bo`lsak, 行きます(ikimasu – bormoq) fe`lida birinchi bo`lib turgan 行(i) iyeroglifi “X” rolini bajarsa, qolgan きます(kimasu) harflari “-ing” rolini bajaradi. Aynan ana shu, iyeroglifdan so`ng keluvchi きます harflari yapon tilida okurigana deb ataladi.

Bunga yana boshqa tanish bo`lgan so`zlar orqali ham misol keltirib o`tish mumkin. Ingliz tilida “1” ning o`qilishi “one” (bir) bo`lib, u miqdor son hisoblanadi. “1st” so`zi esa “first” (birinchi) tarzida o`qiladi va u tartib son sanaladi.

Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, so`z, so`zni tashkil qiluvchi morfema va o`qilish, ya`ni talaffuz bir-biridan farq qilishi mumkin: “1” holatida “one” bir paytning o`zida ham so`z, ham morfema, ham talaffuzdir. Ammo “1st” holatida so`z va morfema “first”, 1 ning alohida talaffuzi esa “fir” dir, chunki “-st” alohida yozilgan. Xuddi shunday, “Xmas” holatida so`z “Christmas” (Rojdestvo), morfemalar “Christ” va “-mas” bo`lsa, X ning talaffuzi birinchi morfema bilan muvofiq keluvchi “Christ” dir.

2.2. Okurigananing yapon tilida bajaradigan vazifasi.

Yapon tilida to`liq kanada yoziladigan so`zlar (asosan, qo`shimchalar, grammatik suffikslar – ~から、~まで、~を、~に、~で、~と、~よ、~ね va ho kazo) okurigana hisoblanmaydi. Hozirgi zamonaviy yozma tilda okurigana deyarli har doim hiraganada yoziladi. Ilgari esa, asosan katakana qo`llanilgan (misol uchun urushgacha, kanji-katakana-majiribun tizimi mavjud bo`lib, hozirda hiraganada yozilgan narsalarning barchasi katakanada yozilgan). Shuningdek, xitoycha o`qilishga ega bo`lgan yapon so`zlarida, iyeroglifning pastki o`ng

tomoniga qo'yiladigan kichik katakana harflari ham okurigana deb ataladi. Ular xitoycha o'qiladigan so'zlarga qo'yilsa-da, ma'noni aniqlashtirib berish bo'yicha yapon grammatikasi qoidalariga bo'ysunadi. Ammo bu belgilarning vazifasi keng bo'lib, ular yana yordamchi so'zlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham bu «okurigana»ni «soegana» deb atagan ma'qul (二ヶ国 – nikakoku – “2 davlat”, 3 カ月 – sankagetsu – “uch oy” dagi kichik katakanalar).

Okurigananing o'rni yapon tilida juda katta. Aynan okurigana yapon tilida so'zlarning faqat iyerogliflardan iborat yozuv bo'lishi oldini oladi. U bo'shliq (probel) siz yoziladigan yapon matnlarida so'zlarni ajratib turuvchi marker rolini o'taydi. Shuningdek, bir xil iyeroglifda yoziladigan har xil so'zlarning farqini aniqlashda yordam beradi.

Yapon tilidagi okurigana qatnashgan sifatlarda ularning tasdiq-inkor, o'tgan-kelasi zamon ekanligi kabi holatlarini ifodalashda bir xil qolipdan foydalaniladi. Oddiygina bir misol: “baland” ma'nosini beruvchi 高 iyeroglifi yapon tilida bir sifatning to'rt xil ko'rinishida keladi. So'zning asl ma'nosi kanji orqali ifodalanadi (高, o'qilishi “taka” va har bir holatda “qimmat / baland” ma'nosida keladi), biroq ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarda (zamon yoki bo'lishsizlik) kanjidan keyin keluvchi okurigananing o'qilishi bilangina tushunilishi mumkin.

高い (takai)

Baland (bo'lishli, tugallanmagan), ma'nosi “(bu) qimmat” yoki “(bu) baland”

高くない (takakunai)

Baland (bo'lishsiz, tugallanmagan), ma'nosi “(bu) qimmat / baland emas”

高かった (takakatta)

Baland (bo'lishli, tugallangan), ma'nosi “(bu) qimmat / baland edi”

高くなかった (takakunakatta)

Baland (bo'lishsiz, tugallangan), ma'nosi «(bu) qimmat / baland emas edi»

Yapon fe'llari haqida ham shunday deyish mumkin; asl ma'no so'zning boshida bir yoki undan ortiq iyeroglifning qo'llanilishi orqali ifodalansa-da, zamon,

bo'lishsizlik, odoblilikning grammatik ko'rinishi va tilning boshqa unsurlari okurigana orqali anglaniladi.

食べる (taberu)

Yemoq (bo'lishli, tugallanmagan, bevosita odobni ifodalaydi), ma'nosi "(Men) yeyman"

食べない (tabenai)

Yemoq (bo'lishsiz, tugallanmagan, bevosita odob), ma'nosi "(Men) yemayman"

食べた (tabeta)

Yemoq (bo'lishli, tugallangan, bevosita odob), ma'nosi "(Men) yedim"

食べなかった (tabenakatta)

Yemoq (bo'lishsiz, tugallangan, bevosita odob), ma'nosi "(Men) yemadim"

Boshqa misollarni ham ko'rib o'tishimiz mumkin:

幸せ - shiawase va 幸い - saiwai so'zlari «baxt», 全く mattaku so'zi "mutlaqo" va 全て subete so'zi "barcha" degan ma'noda.

Shuningdek, bir xil o'qilishga ega bo'lmagan va o'z navbatida keng tarqalgan 上 "tepa, ust" va 下 "past" iyerogliflarini ham misol tariqasida keltirib o'tish mumkin.

上がる - agaru "ko'tarilmoq, chiqmoq, (yomg'ir) tinmoq" kabi so'zlarda 上 iyeroglifi "a" tarzida o'qiladi.

上る - noboru "yetib olmoq, ko'tarilmoq" so'zida esa, 上 iyeroglifi "nobo" tarzida o'qilmoqda.

下さる - kudasaru "bermoq (II yoki III shaxs hurmat ko'rinishi)" so'zida esa 下 iyeroglifi "kuda" tarzida o'qiladi

下りる - oriru "tushmoq, (transportdan) chiqmoq" so'zida 下 iyeroglifi "o" tarzida o'qiladi.

下がる - sagaru "qo'nmoq, pasaymoq, o'tirmoq" so'zida 下 iyeroglifi "sa" tarzida o'qilmoqda.

Okurigana shuningdek, soʻzning “kun” (yaponcha) yoki “on” (xitoycha) oʻqilishini farqlashda ham muhim rol oʻynaydi. Masalan, 禿げ頭 soʻzi “hageatama” tarzida oʻqiladi, uning maʼnosi “taqir (kal) bosh” demakdir. 禿び筆 soʻzining oʻqilishi esa “chibifude” boʻlib, uning maʼnosi “tuksiz moʻyqalam”dir. Ushbu ikki soʻzda okurigananing borligi ularning yapon tilidagi kango (kelib chiqishi xitoycha soʻz) boʻlmish 禿頭 “tokuto” (kal) va 禿筆 “tokuhitsu” (bad. tuksiz moʻyqalam, oʻtmas pero) soʻzlaridan farq qilishini taʼminlaydi. Qoʻshma soʻz boʻlmish 落ち葉 – “ochiba” soʻzida ham okurigana (ち – chi) qoʻllaniladi. Bu soʻzning maʼnosi toʻkilgan barglardir. Shuningdek, xuddi shu iyerogliflarda yoziladigan 落葉 – “rakuyou” (toʻkilgan barglar, barglar toʻkilishi, xazonrezgi) soʻzi ham mavjud. Ushbu misolda shunisi eʼtiborga molikki, okuriganadan keyin yozilishiga qaramay, soʻz yakunida keluvchi 葉 iyeroglifi “ba” hamda “you” orasida fonetik jihatdan oʻzgarmoqda.

Yaponiya Taʼlim vazirligining okuriganani qoʻllash boʻyicha farmonida oxirida “ro” kanasi yoziladigan 後ろ – ushiro (orqa, ort) soʻzi alohida keltirib oʻtiladi. Bu ham oʻqish jarayonidagi chalkashlikdan qutulishning bir yoʻlidir. Xuddi shu iyeroglif wago (asl yapon soʻzlari) ning ‘ato’ va ‘nochi’ oʻqilishini, yoki on (xitoycha talaffuz) ning “go” oʻqilishini ifodalasa, u holda bu iyeroglifning oʻqilishi vaziyat (kontekst) dan kelib chiqib oʻqiladi: その後ろ – sono ushiro “orqada”/ その後 (sonoato, sononochi yoki sonogo tarzida oʻqiladi, maʼnosi “undan keyin”).

Okurigana yana feʼlning oʻzagidan yasaluvchi bir xil talaffuz qilinadigan soʻzlar: ot va feʼllarni ajratib berish vazifasini ham bajaradi. 話 “suhbat” – ot, “gapirmoq” maʼnosini beruvchi 話す “hanasu” feʼli oʻzagidan yasalgan, 話し ham “gapirmoq” feʼli oʻzagidan yasalgan, ammo ushbu vaziyatda 話し feʼl maʼnosini saqlab qolgan, yaʼni u feʼlning harakat nomi shaklini olgan (gapirish) va uning faqat shakli oʻzgargan. Ushbu soʻzlar okuriganaga asoslanib har xil vaziyatlarda qoʻllaniladi. Ular ishtirokidagi misollarni koʻrib oʻtaylik:

話す (hana-su)

"gapirmoq/ aytib bermoq". Misol:

ちゃんと 話す 方がいい。

(Chanto hanasu hou ga ii.)

“Aniq gapirgan ma’qul.”

話し (hana-shi)

“gapirmoq” (hanasu) fe’lidan yasalgan harakat nomi, uni ot sifatida ham qabul qilish mumkin. Misol:

話し 言葉 と 書き 言葉

(Hanashi kotoba to kaki kotoba)

“Og`zaki so`zlar va yozma so`zlar”

話 (hanashi)

“Hikoya”, “suhbat” ma’nolarini beruvchi ot. Misol:

話 は いかが？

(Hanashi wa ikaga?)

"Suhbat qalay?"

Shuni bilib olish muhimki, yapon tilidagi ko`pgina fe'llar yuqorida ko`rsatib o`tilganidek, o`timli va o`timsiz holda keladi. Bu juft fe'llar uchun yagona iyeroglif qo`llanadi., okurigana ularning yakuniy qismini o`zgartirgan holda aks etadi. Yuqoridagi misollardagi okurigana kabi quyidagi cheklanishga oid misollarni ham ko`rib o`tish mumkin: のぼる (noboru)/のぼす so`zi, ×上ぼる yoki ×上ぼす ko`rinishida emas, balki 上る tarzida yoziladi. while あがる (agaru) so`zi esa 上げる (ageru-ko`tarmoq) ga mos ravishda 上がる (a-garu-ko`tarilmoq) tarzida yozilishi qabul qilingan.

Okurigananing o`zi har doim ham o`qilish (talaffuz) ni belgilab berishda yetarlicha bo`lavermaydi. Masalan, 怒る (jahli chiqmoq) so`zi いかる (ika-ru) yoki おこる (oko-ru) tarzida o`qilishi mumkin, ammo u ×怒かる (i-karu) yoki ×怒こる (o-koru) tarzida o`qilmaydi. 開く so`zi esa あく (a-ku) yoki ひらく (hira-

ku) tarzida o`qiladi, ×開らく (hi-raku) tarzida esa o`qilmaydi. Shuningdek, 止める so`zi ham とめる (to-meru), ham やめる (ya-meru) tarzida o`qilishi mumkin bo`lsa-da, ×止る tarzida o`qilmaydi. Bu kabi holatlarda so`zning o`qilishi vaziyat (kontekst) dan yoki furigana (iyeroglifning o`qilishi uning ustiga yoziladigan yozuv tizimi) orqali anglab olinadi.

Ba`zida okurigana fonosemantik xitoy iyerogliflarining fonetik (rebus) tarkibiy qismi (komponenti) ga muvofiq keladi. Bunda ular fonetik to`ldiruvchi roli bilan bir xil vazifani bajaruvchi sifatida aks etadi. Misol uchun, 割り算 (wa-ri-zan – bo`luv, bo`lish) so`zida 割 ning fonetik tarkibiy qismi 刂 bo`lib, u okurigana bo`lmish り ga mos keladi. り ning o`zi esa, 利 iyeroglifidan kelib chiqqan bo`lib, bu iyeroglifda ham 刂 belgisi (elementi) mavjud.

Okurigananing ahamiyatini 生 iyeroglifining turli xil ko`rinishlarda kelishi orqali bilib olishimiz mumkin. 生 iyeroglifi boshqa iyerogliflar singari Xitoydan kirib kelgan va uning “on” (xitoycha) o`qilishi “shou” yoki “sei” hisoblanadi. Endi bu iyeroglif qatnashgan so`zlarning turfa xil “kun” (yaponcha) o`qilishlarini ko`rib o`taylik:

生 “nama” – xom, yoki “ki” – barra

生う [生 u] “o-u” – hajmini oshirmoq

生きる [生 kiru] “i-kiru” – yashamoq

生かす [生 kasu] “i-kasu” – tiriltirmoq

生ける [生 keru] “i-keru” – tirik, yashamoq

生む [生 mu] “u-mu” – tug`moq, ishlab chiqarmoq

生まれる yoki 生れる [生 mareru yoki 生 reru] “u-mareru” yoki “uma-reru – tug`ilmoq

生える [生 eru] “ha-eru” – (tish, soch, soqolga nisbatan) o`smoq (o`timsiz fe`l)

生やす [生 yasu] “ha-yasu” – (tish, soch, soqolga nisbatan) o`stirmoq (o`timli fe`l)

Shuningdek, ushbu iyeroglif qatnashgan xitoy-yapon aralashma (gibrid) so`zi ham bor:

生じる [生 jiru] “shō-jiru” – paydo bo`lmoq

Okurigana shuningdek, iyerogliflar birdan ortiq qo`llaniladigan so`zlarni yozishda ham qo`llaniladi. Bu so`zlarda okurigana iyeroglifni osonlashtirmaydi, balki butun boshli so`zning talaffuzini aniqlashtiradi. Bu esa o`z navbatida birdan ortiq iyeroglif qatnashgan yaponcha so`zlarning xuddi shu iyerogliflarda yozilgan xitoycha so`z (kango) lardan ajratib olish uchun xizmat qiladi. Masalan, 気配り – kikubari (g`amxorlik) so`zi 気配 – kehai (alamat, iz) so`zi bilan ma`no jihatidan bir xil emas (気 iyeroglifining talaffuz qilinishi har ikkala holatda ham okurigana bo`masligiga qaramay, “ki” va “ke” bo`lishiga e`tibor bering). Yoki 流行る – hayaru fe`li “mashhur bo`moq, modada bo`lmoq” ma`nolarini anglatga, 流行 – ryuukou so`zi “moda” ning o`zini ifodalaydi. Ikkinchi misolda yaponcha va xitoycha talaffuz qilinadigan so`zlar ma`nosi bir-biriga yaqin bo`lsa-da, ularning o`qilishi turlichadir.

2.3. Okurigana yuzasidan o`tkazilgan anketa tadqiqoti va uning natijalari

Okuriganani yozishda yaponlarning o`zlari ham qiyinchilikka duch kelishadi. Shu sababdan ham okurigana bo`yicha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida tadqiqot ob'yekti sifatida yaponlarning o`zlari turadi. Bu – okurigana borasida yapon tilini o`rganuvchi chet ellik o`quvchilarga bog`liq tadqiqotlar soni ancha kamligiga sabab bo`lgan, deb aytishimiz mumkin. Mazkur BMI da yapon tilini o`rganuvchi o`zbek talabalari orasida okuriganani qay darajada bilishlarini aniqlash maqsadida anketa-so`rovnoma o`tkazildi. Tadqiqot ob'yekti Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti yapon-ingliz guruhi talabalari hisoblanishadi. Ularning 17 nafari 1-kurs, 12 nafari 2-kurs, 7 nafari 3-kurs va 16 nafari 4-kurs talabalaridir. Talabalar orasida ikki marta anketa-so`rovnoma o`tkazildi. O`zbek talabalari orasida o`tkazilgan anketa-so`rovnomasi dastlab xuddi Inoe Tsugioning 2007-yilda amalga oshirilgan so`rovnomasi asosida o`tkazildi.

Birinchi urinishda ob'yekt sifatida 3- va 4-kurs talabalari tanlab olindi. Ulardan Inoue o'tkazgan so'rovnoma kabi okurigana qatnashgan so'zlar faqat katakanada yozilib, ularni iyeroglif+xiragana ko'rinishiga o'tkazish so'raldi. Ya'ni quyidagi ko'rinishdagi savollar berildi:

次の文で書かれたカタカナの言葉の下にその言葉を漢字+ひらがなの形で書き替えてください。

長年の 苦労 が やっと ミノッタ。

↓

(Naganenno kurou ga yatto minotta.)

«Uzoq yillik mashaqqat nihoyat mevasini berdi.»

Ushbu savolda tagiga chizilgan katakanada yozilgan so'zni pastga iyeroglif+xiragana ko'rinishiga o'tkazib yozish so'ralgan. Misol tariqasida keltirilgan gapda tagiga chizilgan ミノッタ so'zini iyeroglif+xiragana ko'rinishiga o'tkazsak, 実った (minotta – meva bermoq) tarzida yoziladi. Talabalardan ham aynan shu narsa so'ralgandi.

Biroq so'zlarda iyerogliflarning mutlaqo aks etmaganligi sababli, anketa ishtirokchilari savollarga javob yozishda muammoga duch kelishdi. Misol uchun 3-kurs talabalari anketa savollari orasidan joy olgan quyidagi so'zlarni chalkashtirib yuborishdi:

「ケッシテ」 (keshshite – hech qachon, aslo) so'zi 「消ッして」 (bunday so'z mavjud emas) tariqasida yozilgan (to'g'ri javob esa 「決して」);

「ウシログライ」 (ushirogurai – vijdonan azobli) so'zi 「後位」 tarzida (to'g'ri javob 「後ろ暗い」);

「オキル」 (okiru – uyg'onmoq; sodir bo'lmoq) so'zi 「置く」 (oku – qo'ymoq) tarzida (to'g'ri javob 「起きる」);

「ワルイ」 (warui – yomon) so'zi 「笑い」 (warai – kulgi), (to'g'ri javob 「悪い」);

4-kurs talabalari ham xatolardan mustasno bo'lmadilar:

「ナガネン」 (naganen – uzoq yil) soʻzi 「眼鏡」 (megane – koʻzoynak) tarzida xato yozildi (toʻgʻri javob 「長年」);

「ミノッタ」 (minotta – meva berdi) soʻzi 「身乗った」 (bunday soʻz mavjud emas) tarzida (toʻgʻri javob 「実った」);

「マッタク」 (mattaku – mutlaqo) soʻzi 「真ったく」 (bunday soʻz ham yoʻq) tarzida (toʻgʻri javob 「全く」);

「スコヤカ」 (sukoyaka – sogʻlom) soʻzi 「速やか」 (mavjud emas) tarzida (toʻgʻri javob 「健やか」);

「ツメタイ」 (tsumetai – (buyumga nisbatan) sovuq) soʻzi 「親しい」 (shitashii – mehribon) tarzida (toʻgʻri javob 「冷たい」) xato yozildi.

Yuqoridagi holatlarda iyerogliflar aks etmagan soʻzlarda okuriganani yozish yetarli darajada murakkab ekanligi aniqlandi. Birinchi safargi anketa-soʻrovnomasi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, yana bir bor anketa oʻtkazishga qaror qilindi. Avvalgi xatolar inobatga olinib, ikkinchi safar oʻtkazilgan anketa-soʻrovnomasida savollar darajasi nisbatan osonlashtirildi. Ya'ni avvalgi kabi faqat katakana yozilgan soʻzning oʻzigina berilib qolmay, uni iyeroglif+xiragana koʻrinishiga oʻtkazishda iyeroglif bu safar aks ettiriladigan boʻldi. Savollar quyidagicha koʻrinishda boʻldi:

次の文で書かれたカタカナの言葉の下にその言葉の漢字だけが書いてあります。漢字の右側に続く下線に送り仮名を書いてください。

例：長年の苦勞がやっとミノッタ。

↓

実_____

Bunda endi tagiga chizilgan katakana pastida faqat iyeroglifdan soʻng yoziladigan okurigana soʻraldi. Chunki tadqiqotdan maqsad, iyeroglifni emas, okuriganani qay darajada bilishni aniqlash hisoblanardi. Shuningdek, bu safargi tadqiqotda endi 1- va 2-kurs talabalari ham 3- va 4-kurs talabalari bilan bir qatorda

ob'yekt sifatida tanlab olindi. Ikkinchi safargi urinishda so'rovnoma natijalari avvalgisiga qaraganda ancha ijobiy bo'ldi.

So'rovnomada 『送り仮名の付け方』 («Okuriganano tsukekata» - «Okurigananing qo'llanish usuli») da berilgan turli xil okurigana misollari, talabalar foydalanayotgan, ta'lim dasturidan o'rin olgan darsliklardagi misollardan tuzilgan savollar berildi. Ular orasida bir iyeroglif qatnashadigan so'zlardan tuslanadigan va tuslanmaydigan so'zlar ko'p o'rin oldi. Shuningdek, birdan ortiq iyeroglif qatnashadigan iyerogliflar ham joy oldi. Bir iyeroglif qatnashadigan so'zlarga so'z turkumlarining ko'pchilik qismi – fe'llar, sifatlar, sifatlashgan fe'llar (tuslanuvchilar), otlar, ravishlar, bog'lovchi va ko'makchilar (tuslanmaydiganlar) kiritildi.

So'rovnoma natijasiga ko'ra 1-kurs talabalarining 53 % i 「言いました」 (iimashita – aytdi) fe'lida, 47 % i esa 「帰って」 (kaette – qaytib kelib) va 「読んで」 (yonde – o'qib) fe'llarida xatoliklarga yo'l qo'yishdi. Buning sababi sifatida 1-kurs talabalarining institutda yapon tilini o'rganishni boshlaganlariga hali ko'p muddat o'tmaganligi, shuning uchun ham okurigana haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasliklarini ko'rsatish mumkin.

4-kurs talabalari esa, kutilganidek, quyi kurs talabalariga nisbatan eng yaxshi natijani ko'rsatishdi. Ularning 37,5 % i 「育たなくても」 (sodatanakutemo – tarbiyalanmasa ham) fe'lida, 31,2 % i esa 「決まって」 (kimatte – hal qilinib), 「失っても²⁴」 (ushinattemo – yo'qotsa ham) fe'llarida, 「健やか」 (sukoyaka – sog'lom) sifatida va 「全く」 (mattaku – mutlaqo) ravishida xatoliklarga yo'l qo'yishdi. Bundan bir iyeroglif qatnashgan tuslanuvchi so'zlarni yozishda hali okurigana ustida yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish lozimligi, shuningdek, 「健やか」 (sukoyaka – sog'lom), 「滑らか」 (nameraka – toyinchoq), 「賑やか」 (nigiyaka – gavjum) kabi sifatlarda okurigana «ya», «ra» harflaridan boshlab chiqishini bilish muhim, deb aytish mumkin.

²⁴ 「日本語表現文型」中級Ⅱ、1983年4月1日 初版発行、1994年11月20日 第17刷発行、寺村秀夫、発行印刷：株式会社イセブ、ページ41

Uchinchi kurs talabalarining 57, 1 % i esa 「確かめて²⁵」 (tashikamete – aniqlashtirib), shuningdek, shaklini otga o'zgartirgan 「恐ろしさ²⁶」 (osoroshisa – qo'rqinch) hamda 「決して」 (keshshite – hech qachon) ravishida ko'p xatoliklarga yo'l qo'yganliklari aniqlandi.

Ikkinchi safar o'tkazilgan anketa-so'rovnomasi natijasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, test yoki imtihon paytida iyeroglifni yaxshi tushunib, shakllari o'xshash bo'lgan iyerogliflar va omonim so'zlarni ajratib ola bilish muhimdir. Chindan ham, okuriganani yozishda hali hal qilinmay qolgan muammolar qolib ketayotir. Ularning eng mashhuri – shubhasiz, so'zning qaysi bo'lagini iyeroglifda-yu, qay bo'lagini kanada yozish masalasi. Qaysidir ma'noda buning oqibatida okuriganadan foydalanish yapon yozuv tizimining jiddiy muammolaridan biri sifatida qolmoqda. Sababi leksikadagi kesimlikning tuslanuvchi shakli aks etishida okurigana eng muhim omil vazifasini bajaradi²⁷. Ana shulardan kelib chiqib, okuriganada xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun iyerogliflarni bilish darajasini yanada oshirish, buning uchun esa har xil usuldagi mashqlarni qo'llash foydadan holi bo'lmasligini ham qayd etib o'tish mumkin. Bu mashqlar sirasiga muntazam kompyuterda yapon grafikasidan foydalanishni birinchi navbatda keltirib o'tish maqsadga muvofiq. Chunki yapon yozuvi shrifti kompyuterda bir qancha o'ziga xosliklarga ega: yozilgan omonim so'zlar orasidan istalgan so'zni tanlay olish imkoniyati, turli xil belgilarni qo'llay olish, bir harfning turli xil hajmlarda kelganligi shular jumlasidandir. Kompyuterda yozishning okuriganaga bog'liq qulaylik jihati shundan iboratki, bunda so'zni yozib probel tugmasi bosilganda shu zahoti bu so'z iyeroglif + xiragana ko'rinishiga o'zgaradi. Agar yozilgan so'zning omonim juftlari bo'lsa, ular orasidan keraklisi tanlab olinadi. Yana bir mashq bu – lug'atlardan keng foydalanishdir. Negaki yaponcha lug'atlarda so'zning nafaqat xiragana varianti, balki yuqoridagi iyeroglif + xiragana kabi varianti ham kvadrat qavslar ichida berib o'tilgan bo'ladi. Bu ham

²⁵ 「日本語表現文型」中級Ⅱ、1983年4月1日 初版発行、1994年11月20日 第17刷発行、寺村秀夫、発行印刷：株式会社イセブ、ページ9

²⁶ 同じ文献、同じページ

²⁷ Пряхина Л. В. «Окуригана в современном японском языке», Москва, «Муравей», 2002, с. 4

okuriganani to'g'ri qo'llashda ancha foydali usuldir. Kartochkalarni yozib yurgan holda qo'llab yurish ham okuriganada duch kelishi mumkin bo'lgan muammoni bartaraf etadi.

Albatta bu usullar amalda qo'llanilsa, foydadan xoli bo'lmasdi. Shuni alohida qayd etib o'tish muhimki, bu usullarning hammasi 「送り仮名の付け方」 (Okuriganano tsukekata) – «Okurigananing qo'llanish usullari» asosida o'ylab topilgan. Shunday ekan, eng avvalo mazkur qo'llanish usullarini puxta o'zlashtirib olish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

XULOSA

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, til islohoti har bir tilda mavjud bo'lgan muammoli masalalarni hal qilishda, ularning yechimini topish maqsadida amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda – til islohoti tilda yangi narsani kashf etish emas, balki tilga o'zgartirish olib kirishdir. Bu islohotlardan asosiy maqsad – shu tilda so'zlashuvchi millat vakillari uchun so'zlashuv va yozma til tushunarli, qo'llanishi oson bo'lishiga erishishdir. Ammo islohotlar mavjud muammoni hal qilish bilan bir qatorda boshqa bir yangi masala paydo bo'lishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Ko'pgina davlatlar o'zlarida sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar natijasida boshqa sohalaridagi kabi tilda ham islohotlarni amalga oshiradilar. Tildagi islohotga ayniqsa demografik o'zgarish katta ta'sir qiladi. Chunki tilda so'zlashuvchilarning hammasi – xalq vakillaridir. Mamlakat hududiga ko'chib keluvchi boshqa millat vakillari, aksincha mamlakatdan chiqib ketish hollari ham tilda islohot amalga oshirishga turtki bo'lishi mumkin.

Hech bir til islohotdan mustasno emas. Dunyoda mavjud yuzlab tillarda hanuzgacha islohotlar olib borilishi davom etmoqda. Ular orasida grammatik islohotlar, o'zlashma so'zlar islohoti, punktuatsion islohotlar bilan bir qatorda yozuv islohoti ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki yozuvsiz til – o'qi yo'q miltiq kabidir.

Yozuvga doir islohotlar qator faktorlarning ta'siri ostida amalga oshishi yoki oshmasligi mumkin. Ularning orasidan quyidagi asosiy shart-sharoitlarni ajratib ko'tsatish mumkin bo'ladi:

- 1) sof lingvistik sabablar;
- 2) iqtisodiy sabablar;
- 3) ijtimoiy-siyosiy sabablar;
- 4) psixologik sabablar.

Tarixan yozuv ustida turli davrlarda, ma'lum bir sabablarga ko'ra islohot amalga oshirilgan. Masalan, arab yozuvida islohot o'tkazilishiga asosiy sabab –

islom dinining boshqa hududlarga tarqalishi va mazkur hududlarda Qur'oni Karimning o'qilishini yengillatish bo'lgan.

Hozirda dunyoning 30 % aholisi qo'llaydigan lotin yozuviga keladigan bo'lsak, qadimgi yodgorliklarda lotin yozuv yo'nalishi ham o'ngdan chapga, ham chapdan o'ngga bo'lgan, miloddan avvalgi IV asrdan keyingina chapdan o'ngga qarab yozish barqarorlashgan. Bu davrdagi yozuvda tinish belgilari bo'lmagan, harflar bosh (katta) va kichik harflarga ajratilmagan. Kitob bosish ishlari yo'lga qo'yilganidan keyingina, tinish belgilari, diakritik belgilar paydo bo'ldi, bosh va kichik harflar farqlana boshlandi.

Xitoy yozuvidagi islohotlarga esa haddan tashqari ko'p iyerogliflarning o'qilishini osonlashtirish bo'lgan. Aynan Xitoy iyerogliflari keyinchalik koreys va yapon tillaridagi yozuv tizimining vujudga kelishida tamal tosh vazifasini bajargan.

Yapon tili ham ko'pgina islohotlar amalga oshirilgan tillardan biri hisoblanadi. Yaponiya uchun til islohoti bu – davlat tili yapon bo'lgan Yaponiyada yapon davlat organlari tomonida ishlab chiqiladigan, birinchi navbatda yapon xalqi uchun mo'ljallab olib boriladigan, yapon tili doirasida amalga oshiriladigan islohotdir.

Yapon tili Oltoy tillari oilasiga kiradi. VI asrgacha yapon tili o'z yozuv tizimiga ega emas edi va VI asrda Yaponiyada Xitoy yozuvi ishlatilishi boshlanadi, deb qaraladi. Shu vaqtlarda yaponlar klassik xitoy yoki yapon-xitoy gibril usulida yozishgan. Ushbu usulda xitoy iyerogliflari xitoy tilidan olingan so'zlar hamda shu ma'noni bildiradigan yapon so'zlari uchun ishlatilgan. Ayni vaqtda bir qator iyerogliflarning fonetik ifodasi yapon tilida keng miqyosda mavjud grammatik qo'shimchalarni talaffuzda ifodalash uchun ishlatilgan. Shunday iyerogliflarning soddalashtirilgan shakllari paydo bo'lgan va ular asosida xiragana va katakana sillabariylari yaratilgan.

Yapon tilida yozuv islohotlari keyingi yuz yil ichida o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. XX asrda yapon tilida, asosan, yozuv bo'yicha islohotlar amalga oshirildi. Bu albatta bejizga emas. Chunki yapon tilida yozuvlarning 4 xil turi mavjud bo'lib, ularning har biri yapon jamiyatida alohida muhim o'rin tutadi.

Hozirgi yapon yozuvi tizimida asosan, 2 turli belgilar – iyerogliflar (yaponchada 漢字 – kanji – xitoy yozuvi) va bo`g`inli belgilar (仮名 – “kana”lar) qo`llanadi. Iyeroglifalar yuqorida qayd etilgan 4 asosiy yozuv turning birinchisi hisoblanadi. Ikkinchi va uchinchi yozuv turlari bu – kanani tashkil etuvchilar: 平仮名 (xiragana) va 片仮名 (katakana) lar hisoblanishadi. Bugungi kunda yapon yozuvi tizimiga yana fonemaviy belgilar – lotin alifbosi (yaponcha ローマ字 – roomaji – Rim yozuvi) ham kirib kelmoqda. Bu – yapon jamiyatida qo`llaniladigan yozuv turning so`nggisidir. Yapon yozuvi vertikal ustun shaklida bo`lib, belgilar yuqoridan quyiga tomon, ustunlar esa o`ngdan chapga qarab joylashadi. Keyingi paytlarda uning gorizontal holatda chapdan o`ngga qarab yoziladigan shakli ham qo`llanilmoqda.

Yapon yozuvi ichida o`ziga xos o`rin egallovchi okuriganaga keladigan bo`lsak, okurigananing o`rni yapon tilida benihoya katta. Aynan okurigana yapon tilida so`zlarning faqat iyerogliflardan iborat yozuv bo`lishi oldini oladi. U bo`shliq (probel) siz yoziladigan yapon matnlarida so`zlarni ajratib turuvchi marker rolini o`taydi. Shuningdek, bir xil iyeroglifda yoziladigan har xil har xil so`zlarning farqini aniqlashda yordam beradi.

Okurigana borasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar ko`lami talaygina. Ular asosan okurigananing murakkablik jihatlariga e`tibor qaratilib amalga oshirilgan. To`g`ri, barcha tadqiqotlar diqqat markazida yaponlarning o`zlari turadi. Diqqat markazida yapon tilini o`rganuvchi chet elliklar turgan bu boradagi tadqiqotlar esa deyarli uchramaydi. Chet elliklar diqqat markazida turgan bunday tadqiqotlarning deyarli amalga oshirilmaganligiga sabab nafaqat ular, balki yaponlarning o`zlari ham ba`zida okuriganada muammolarga duch kelishlari hisoblanadi. Endi yapon tilini o`rganuvchi biror bir boshqa millat vakilining okuriganani qay darajada bilishini tasavvur qilish qiyin emas. Chunki ona tilida mavjud okuriganada yaponlarning o`zlari adashishar ekan, yapon bo`lmagan millat vakilining (masalan, o`zbek millati vakillarining) o`z ona tilida bunga o`xshash yozuv mavjud bo`lmasa uning yanglishishi tabiiy holdir.

O'zbek talabalari orasida o'tkazilgan anketa-so'rovnoma natijasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, test yoki imtihon paytida iyeroglifni yaxshi tushunib, shakllari o'xshash bo'lgan iyerogliflar va omonim so'zlarni ajratib olib bilish muhimdir. Bundan tashqari iyerogliflarni bilish darajasini yanada oshirish, buning uchun esa har xil usuldagi mashqlarni qo'llash foydadan holi bo'lmashini ham qayd etib o'tish mumkin.

Shuningdek, okuriganadan mutlaqo bexabar, yoki umuman tushunmaydigan yapon tilini o'rganayotgan talabaga uni tushuntirish uchun boshqa tillarda mavjud bo'lgan analoglar orqali tushuntirib berish mumkin. Misol uchun ingliz tilida "birinchi" ma'nosini ifodalovchi "1st" so'zida "1" iyeroglif sifatida, unga qo'shilgan "-st" esa okurigana sifatida tushuntirilsa, o'quvchida har qalay okurigana haqida oz bo'lsa-da tushuncha paydo bo'ladi. Chunki "1st" ko'rinishidan ikkita unsurdan tashkil topgan bo'lsa ham, ular bir butunlikda yagona ma'noni ifodalaydi. Xuddi shu kabi okurigana ham iyeroglif bilan birga kelsa, ular shaklan farq qilsalar ham, birgalikda yagona ma'noni ifodalaydi.

Albatta, okuriganani to'g'ri qo'llay bilish va o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib berishda bu usullar amalda qo'llanilsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Shuni alohida qayd etib o'tish muhimki, okuriganani to'g'ri qo'llash usullarning barchasi 「送り仮名の付け方」 (Okuriganano tsukekata) – «Okurigananing qo'llanish usullari» asosida o'ylab topilgan. Shunday ekan, eng avvalo mazkur qo'llanish usullarini puxta o'zlashtirib olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari

- I.1. Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», «Ma'naviyat», Toshkent, 2008.
- I.2. Karimov I. A. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, 1997.
- I.3. Karimov I. A. “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda”, Toshkent, 1999.

II. Darsliklar

II.1. O'zbekistonda chop etilgan darsliklar:

- II.1.1. Karimova Umida Baxtiyor qizi. “Yapon tili alifbosi loyihalari va ularning belgilarini yozish qoidalarini”, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2007.
- II.1.2. Karimova Umida Baxtiyor qizi. “Yapon yozuv tizimi rivoji muammolari”, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2008.
- II.1.3. Qudratxo'jayev Sherzod, Abdug'affor Qirg'izboyev, “O'zbekiston-Yaponiya: o'zbek diplomatiyasining yangi bosqichi”, Toshkent, “O'AJBNT” Markazi, 2002.
- II.1.4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 3-jild, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2002.
- II.1.5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 4-jild, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2002.
- II.1.6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 5-jild, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2003.

II.1.7. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 9-jild, “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2005.

II.1.8. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 10-jild, “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2005.

II.1.9. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 11-jild, “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2005.

II.2. Rossiyada chop etilgan darsliklar

II.2.1. Алпатов В. М. «Япония: язык и общество», Москва, «Муравей», 2003.

II.2.2. Пряхина Л. В. «Окуригана в современном японском языке», Москва, «Муравей», 2002.

II.3. Xorijda chop etilgan darsliklar

II.3.1 「新しい国語表記ハンドブック」【第四版】、1991年12月10日第1刷発行、1996年3月10日第5刷発行、発行者：株式会社三省堂 代表者加藤精英、発行所：株式会社三省堂、ページ183 - 190。

II.3.2. 真田信田、「社会言語学の展望」、くろしお出版、2006.

II.3.3. 「日本語表現文型」中級Ⅰ、筑波大学日本語教育研究会、代表 寺村秀夫。

II.3.4. 「日本語表現文型」中級Ⅱ、1983年4月1日 初版発行、1994年11月20日 第17刷発行、発行印刷：株式会社イセブ 代表 寺村秀夫

II.3.5. 「よくわかる文法」、藤原雅憲、「よくわかる文法」1999年12月25日 初版発行（2008年4月30日、10刷発行）、ページ191—193, 196.

II.3.6. 「日本語表記ルールブック」 2005年9月27日第1刷発行、2006年7月3日第2刷発行、日本エディタースクール

III. O`quv qo`llanmalar

III.1. 『漢文訓読における送り仮名』明星大学研究紀要【日本文化学部・言語文化学科】、第13号、2005年、ページ15－39、明星大学言語文化学科 教授 日中比較文学、古田島 洋介、研究タイトル：「本系的説明の試み」

IV. Ilmiy amaliy-anjumanlar, ma'ruzalar to`plami

IV.1. “Sharq tillari va adabiyoti fanlarini o`qitish metodikasining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti, 2009

V. Internet saytlari

V.1. www.mext.go.jp

V.2. dir.kotoba.jp/ddcat.cgi?fsz=2&k=okurigana

V.3. www.informe.co.jp/useful/character/character4.html

VI. Bitiruv malakaviy ishlari (bakalavr yo`nalishidagi talabalar uchun)

VI.1. 『送り仮名の誤答分析』 An Error Analysis on “Okurigana” in Japanese 小山工業高等専門学校研究紀要、第39号（2007）1—10、井上次夫 TSUGIO INOUE、研究タイトル：「誤答例を用いた送り仮名指導に向けて」

(Talabalar orasida o'tkazilgan anketa-tadqiqot savollari)

言語（日本語）政策の歴史

アンケート調査

4年生

次の文で書かれたかたかなの言葉の下にその言葉の漢字だけが書いてあります。漢字の右側に続く下線に送り仮名を書いてください。

1. 長年の苦勞がやっとミノッタ。

↓

実_____

2. その話をキイテ急に彼は故郷がコイシクなった。

↓

聞_____

↓

恋_____

3. 町はようやくシズカニなった。

↓

静_____

4. 本で読んだことをアジワッテみませんか。

↓

味_____

5. そこが彼の余人とコトナル点だ。

↓

異_____

6. 彼は幼いこの言葉にオオキク ウゴカサレタ。

↓

大_____

↓

動_____

7. こんなヨロコバシイことはない。

↓

喜_____

8. アブナイところで汽車に間に合った。

↓

危_____

9. 彼は私にツメタイ態度をとる。

↓

冷_____

10. 新制度の理念はまだ十分サダマッテいない。

↓

定_____

11. スコヤカにソダタナクテモ、スコヤカになった人がいっぱいいます。

↓

健_____

↓

育_____

12. 彼は娘をウシナッテモ「カナシミにマッタク沈まない」と誓いました。

↓

失_____

↓

悲_____

↓

全_____

ご協力、誠にありがとうございました！

言語（日本語）政策の歴史

アンケート調査

3年生

次の文における下線の片仮名の言葉を漢字＋平仮名の形に書き替えてください。*試験ではないので辞書などを使わないようにお願いします。

1. 彼女は三つ子をウミマシタ。

↓

生_____

2. 彼はモノオボエがワルイ。

↓

物覚_____ 悪_____

3. 「スギサッタ 日々」という小説を読んだことがありますか。

↓

過_____ 去_____

4. 赤ちゃんがオキルからシズカしなさい。

↓

起_____ 静_____

5. そのことはタシカメル必要がある。

↓

確_____

6. 「けんかするほどのことではないよ！」と友人をオサエタ。

↓

押_____

7. 彼はオソロシサにわなわなふるえていた。

↓

恐_____

8. サマルカンドで日本人の旅人にハナシカケテみた。

↓

話_____

9. 彼はケッシテ ウシログライことはしない。

↓

決_____ 後_____ 暗_____

10. 私のおネガイをキイテください。

↓

願_____ 聞_____

11. 彼はどんな仕事でもカナラズりっぱにやっつのける。

↓

必_____

12. 今指導部とウチアワセテ行動したほうがいい。

↓

打_____ 合_____

ご協力、誠にありがとうございました！

言語（日本語）政策の歴史

アンケート調査

2年生

何年間ぐらい日本語を勉強していますか。 Necha yildan beri yapon tilini o`rganasiz?

- () 1年間以下。 1 yildan kam () 1～2年間。 1－2 yil () 3～4年間。 3－4 yil
() 5～6年間 5－6 yil

次の文で書かれたかたかなの言葉の下にその言葉の漢字だけが書いてあります。漢字の右側に続く下線に送り仮名を書いてください。 Quydagi katakanada yozilgan so`zlarning pastki tomonida shu so`zlarning faqat iyeroglifi yozilgan. Siz ana shu iyeroglifning davomidan kerakli xiragana harflarini joylashtirib so`zni yakunlang.

1. 友人からのアドバイスはもう一度カンガエテみてください。

↓

考_____

2. この家もだいぶフルクなった。

↓

古_____

3. 子供は家庭をアカルクする。

↓

明_____

4. 首相はワシントンにムカッテ成田を立った。

↓

向_____

5. ウシロの壁のチカクに座っている人は誰ですか。

↓

後_____

↓

近_____

6. 最近、学生にとってコタエのできない問題がフエテいるそうです。

↓

答_____

↓

増_____

7. あの店はオソロシク高い。

↓

恐_____

8. 彼はとうとう僕のところに借金をモウシコンデした。

↓

申_____ 込_____

9. パフタコル駅でアリシエル・ナボーい駅にノリカエマシタ。

↓

乗_____ 換_____

10. 子供の試験の準備をテツダワサレタ。

↓

手伝_____

ご協力誠にありがとうございました！
Anketadagi ishtirokingiz uchun rahmat!

言語（日本語）政策の歴史

アンケート調査

1 年生

何年間日本語を勉強していますか。 Necha yildan beri yapon tilini o'rganasiz? Сколько лет Вы изучаете японский язык?

- () 1 年間以下。 1 yildan kam. Меньше 1 год () 1 ～ 2 年間。 1 – 2 yil. 1 – 2 года ()
3 ～ 4 年間。 3 – 4 yil. 3 – 4 года

次の文で書かれたかたかなの言葉の下にその言葉の漢字だけが書いてあります。漢字の右側に続く下線に送り仮名を書いてください。 Quydagi katakana da yozilgan so'zlarning pastki tomonida shu so'zlarning faqat iyeroglifi yozilgan. Siz ana shu iyeroglifning davomidan kerakli xiragana harflarini joylashtirib so'zni yakunlang. Снизу указаны слова на катакане. Под этими словами написан только иероглиф этих слов. Вы допишите слова используя хирагану.

1. 私はあした大学へイキマス。

↓

行_____

2. 父は6時にうちへカエリマス。

↓

帰_____

3. 毎日3回ご飯をタベテください。

↓

食_____

4. アフマッドさんはりんごがスキです。

↓

好_____

5. 今朝アカイりんごを食べて、牛乳をノミマシタ。

↓

赤_____

↓

飲_____

7. あそこにタカイビルがあります。

↓

高_____

8. 夜オソク カエッテ、父に叱られました。

↓

遅_____

↓

帰_____

9. 「このテキストをヨンデください」と先生がイイマシタ。

↓

読_____

↓

言_____

10. アオイ空は略されて「青空」とも言われます。

↓

青_____

ご協力、誠にありがとうございました！

Anketadagi ishtirokingiz uchun rahmat!

Спасибо за участия в анкете!